O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH
INSTITUTI

QURILISH FAKULTETI
«Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi
va montaji» kafedrasi

20-KTMKQ-14 GURUH TALABASI
O'RINBOYEVA MATLUBA SOTIBOLDI QIZI

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Qurilish kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlarni zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida o'qitishni tashkil etish.**

Namangan- 2018 yil

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

Qurilish fakulteti

Fakultet dekani
________ dots. A. To'xtabayev
"22" "06" 2018 y.

"Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji" kafedrasi

20-KTMKQ-14 guruh talabasi O`rinboyeva Matluba Sotiboldi qizi

Qurilish kasb hunar kollejlarida maxsus fanlarni zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida o`qitishni tashkil etish mavzusi uchun

# T U S h U N T I R U V   Y O Z U V I

20-KTMKQ-14 guruh talabasi: ________ (imzo) O`rinboyeva Matluba.

Rahbari: ________ (imzo) F.Yunusov

Kafedra mudiri: ________ (imzo) A.Alinazarov

Maslahatchilar: ________ (imzo) Sh. Isoqov

________ (imzo) ________

Ishni taqrizga yuborilgan vaqti: «20» 06 2018 yil

Taqriz qilingan vaqt: «21» 06 2018 yil

Namangan-2018 yil

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**

**«TASDIQLAYMAN»**
«Qurilish» fakulteti dekani
_________ dots. A. A. To`xtabayev
"12" 01 2018 y.

Bakalavrlar uchun bitiruv malakaviy ishiga

# T O P S H I R I Q

Qurilish fakulteti 5111000-Kasb talimi (Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji) ta'lim yo`nalishi bo`yicha "Muxandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji" kafedrasining bitiruvchisi 20-KTMKQ-14 guruh talabasi ***O'rinboyeva Matluba Sotiboldi qizini*** bitiruv malakaviy ishi mavzusi: ***Qurilish kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlarni zamonoaviy innovatsion texnologiyalar asosida o'qitishni tashkil etish.***

Ish raxbari: F. Yunusov

Institut rektoriring ***2017 yil "12" dekabrdagi № 688-T*** sonli bitiruv malakaviy ish mavzulari va rahbarlarni biriktirish haqidagi buyrug`i

**1. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun boshlang`ich malumotlar**

Innovatsion texnologiyalar tahlili
Internet ma'lumotlari

**2. Xisob- tushuntiruv yozuvlarining tuzilishi:**

1. Titul varag`i; 2. Mundarija; 3. Kirish; 4. Asosiy qism; 5. Metodika qismi; 6. Atrof-muhit muhofazasi; 7. Hayot faoliyati xavfsizligi; 8. Iqtisodiyot yoki ishning samaradorligi qismi;9. Xulosa; 10. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati; 11. Ilova;

**3. Chizma ishlari tarkibi. (A2 formatda 4 tadan 6 tagacha)**

Mavzuga oid klaster, maxsus fan mavzusiga oid chizmalar.
Mavzu loyihasi chizmasi.

## 4. Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha maslahatlar.

| T/r | Bo'lim mavzusi | Maslaxatchi o'qituvchilarning F.I.Sh | Topshiriq berildi | | Topshiriq bajarildi | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | sana | imzo | sana | imzo |
| 1 | Pedagogika kismi | F. Yunusov | 12.01.18 | [signature] | 10.05.18 | [signature] |
| 2 | Metodika qismi | F. Yunusov | 12.01.18 | [signature] | 20.05.18 | [signature] |
| 3 | Atrof-muhit muhofazasi | F. Yunusov | 12.01.18 | [signature] | 1.06.18 | [signature] |
| 4 | Hayot faoliyati xavfsizligi | A. Alinazarov | 12.01.18 | [signature] | 5.06.18 | [signature] |
| 5 | Ishning samaradorligi | F. Yunusov | 12.01.18 | [signature] | 10.06.18 | [signature] |

## 5. Bitiruv malakaviy ishini bajarish rejasi (rahbar rejalashtiradi)

| T/r | Bitiruv malakaviy ishi bosqichlarining nomi | Bajarish muddati | Tekshiruvdan o'tgan muddati |
|---|---|---|---|
| 1 | **Pedagogika kismi** | 12.01.18 y | |
| | Mavzuni pedagogik nuqtai nazardan loyihalash | ÷ 10.05.18 | 10.05.2018 |
| 2 | **Metodika qismi** | 10.05.18 y | |
| | Maxsus fan mavzusi bo'yicha o'qitish metodikasini ishlab chiqish | ÷ 20.05.18 | 20.05.2018 |
| 3 | **Atrof-muhit muhofazasi** | | |
| | Atmosfera havosini muhofaza qilish chora-tadbirlari | 21.05.18<br>1.06.18 | 1.06.2018 |
| 4 | **Hayot faoliyati xavfsizligi** | 1.05.18 | |
| | Mavzuga oid mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi chora-tadbirlarini | 5.06.18 | 5.06.2018 |
| 5 | **Ishning samaradorligi** | 6.06.18 | |
| | Ishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash | 10.06.18 | 10.06.2018 |

Ishni kafedraga topshirish vaqti «10» 06 2018 yil

**Talaba:** O'rinboyeva M [signature] «12» 01 2018 yil

**Ish rahbari:** F. Yunusov [signature] «12» 01 2018 yil

**Kafedra mudiri:** A. Alinazarov [signature] «12» 01 2018 yil

# MUNDARIJA


1. Kirish........................................................................ 1-6
2. Pedagogika qismi........................................................................ 7-67
3. Metodika qismi........................................................................ 68-109
4. Atrof-muhit muhofazasi qismi........................................................ 110-113
5. Hayot faoliyatl xavfsizligi qismi........................................................ 114-118
6. Ishning samaradorllgi........................................................ 119-124
7. Xulosa........................................................................ 125-128
8. Foydalanllgan adabiyotlar ro'yxati........................................ 129-133
9. Internet ma`lumotlari........................................................ 134-147

# KIRISh

"Men eshitaman-u, unitib qo'yaman. Men ko'raman-u, eslab qolaman. Men bajaraman-u, tushunib olaman."

Konfutsiy

# K i r i s h

2018-yil Prezidentimiz tomonidan „Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash" yili deb e'lon qilindi, insonlarning hayot tarzi va turmush sifatini, ishlab chiqarish munosabatlarining mazmun-mohiyatini o'zgartirishga qurilish kommunikatsiya tizimlari va agrosanoat majmuida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirishga oxir-oqibat qishloq axolisining ijtimoiy siyosiy va madaniy saviyasini, uning ongi va fuqarolik masulyatini oshirishga qaratilgan, biz uchun o'ta dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan ushbu davlat dasturini bajarishga kirishar ekanmiz, 2018-yildagi bosh vazifamiz uni amalga oshirish bo'yicha istiqboldagi barcha ishlarni mustahkam tashkiliy asosga qo'yishdan iborat bo'lmog'i kerak.

Shunday ekan shahar va qishloq yoshlarini bilim olishga qiziqtirish, ularning qishloqlarimiz farovonligi va taraqqiyotga ulkan hissalari qo'shishlari uchun qulay sharoitlar

chuqur bilim va kŏnikmalar berishimiz zarur. Hozirgi davrda Ŏzbekiston Respublikasining ŏziga xos taraqqiyot yŏli oliy ŏquv yurtlaridan yuqori malakali muhandislar tayyorlashning yangicha tamoyillarini taqazo etmoqda. Bu esa kasb - hunar kollejlarida ta'lim berishni yangi kontseptsiya asosida ishlab chiqishni va ŏqitishni dolzarb muammo qilib qŏydi.

Ŏzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Kadrlar tayyorlashning milliy dasturida" bozor iqtisodiyoti va yangicha texnologiya sharoitlarida ishlay oladigan kadrlarni tayyorlash kŏzda tutilgan. Ŏquv yurtlarida ta'lim tarbiya jarayonlarini jahon andozalari darajasiga kŏtarish, yangi ta'lim usullari, pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil etish, yoshlar ta'lim tarbiyasini milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlarni bilish, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqatlilik ruhini tarkib toptirish asos qilib olinishi lozim.

Barkamol avlod tarbiyalash insoniyatning eng yorqin orzusi

bo'lib kelgan. Biroq dunyo xalqlarining barchasi ham bu haqida o'ylayver-magan. Bunday orzudagi insonlar asosiy maorifatga, madaniyatga mansub bo'lgan yurtlarning donish-mandlari eng mo'tabar, ziyolilari hukumdorlari hisoblangan.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklari rioya etishini, jamiyat-ning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakillantirishni, jahon hamjamiyati-dagi qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda.

Inson uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va ta'sirchan mexanizim-larini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andoza-larini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi-dir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy kadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiy, fan texnika va texnologiyalarning

yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakillantirish O'zbekiston taraqqiyotini muhim shartidir.

„Kadrlar tayyorlash milliy dasturi Ta'lim tŏg'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalaga muofiq holda tayyorlangan bŏlib, milliy tajribaning tŏlali va ta'lim tizimidagi jaxon miqiyosidagi yutuqlari asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faoliyatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga mustaqil ravishda mŏljalini tŏg'ri ola bilish mahoratiga ega bŏlgan, istiqbol vasifalarni ilgari surish va hal etishga qodir kadirlarni yangi avlodni shakillantirishga yŏnaltirilgandir.

Kadrlar tayyorlash tizmining demokratik ŏzgarishlar va bozor islohatlari talablariga muofiq emasligi, ŏquv jarayoning moddiy-texnika va axborot yetarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli ŏquv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didak-

tik materiallarning kamligi, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida puxta o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali integratsiyaning yo'qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi.

Ta'lim - tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini bir - biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim - tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hal qilingan emas. Amaldagi ta'lim tizimi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmayotir. Mutaxassislar tayyorlash, ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatda bo'layotgan islohot, yangilanish jarayonlari talablari bilan bog'lanmagan.

O'quv jarayoni bilim darajasi o'rtacha bo'lgan o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib ta'limning iqtidorli yoshlar bilan yakka tartibdagi o'quv dasturlari bo'yicha ishlash kabi mexanizmlardan yaxshi foydalanilmayapti. O'quv dasturlari mafkuraviy sarqitlardan to'liq holi bo'lgunicha yo'q, ularda ma'naviyat va axloq asoslarini o'rgatuvchi, iqtisodiy

huquqiy estetik bilimlarini beruvchi fanlarga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Ilmiy muassasalar, ishlab chiqarish va ijtimoiy institutlar kadrlar tayyorlash jarayoniga yetarli darajada qo'shilganlari yo'q. Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, ta'lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasida o'tkazish vazifalari belgilab olinmagan.

O'quvchilarning bilim darajasini baholash tizimi ob'ektivlik va tezkorlikni ta'minlamaydi.

O'qituvchilar, tarbiyachilar va murabbiylarning, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning malakali kadrlardan samarali foydalanilmayapti. Kadrlar bilimi va ular tayyorgarligining sifatini nazorat qilish hamda baholash tizimi qoniqarsiz ishlamoqda.

Shunday ekan, biz bo'lg'usi o'qituvchi murabbiy va muxandis-pedagoglarimizning o'z sohalari bo'yicha yetuk mutaxassislar bo'lib yetishib chiqishlari hamda o'z bilimlarini o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga to'la-to'kis singdira olishlariga erishmog'imiz darkor.

# PEDAGOGIKA QISMI

Maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish innovatsion pedagogik texnologiyaning umumiy asoslari.

Bu tushuncha XX asrda paydo bo'ldi va 1940-1950 yillarda „ta'lim texnologiyasi" tarzida qo'llanilib, mazmunan o'quv jarayonida audio-visual texnika vositalardan foydalanishni anglatgan. Atama dastlab AQSh da qo'llana boshladi. Keyinchalik „ta'lim texnologiyasi" o'rniga „dasturlashtirilgan ta'lim" atamasidan foydalanish keng yoyildi. So'ngra pedagog texnologiya loyihalashtirilgan ta'lim va aniq maqsadga qaratilgan o'quv jarayoni ifoda eta boshladi. O'tgan asrning 80-yillarida pedagogik texnologiya kompyuterli va axborot texnologiyalari bilan sinonim tarzda ishlatila boshladi.

Keyingi o'n yillarda pedagog olimlar va o'qituvchilar diqqatini jalb qilgan masalalardan biri pedagogik texnologiya (PT) hisoblanadi. Bu mavzuning ilmiy ishlarda, hisobotlarda, maxsus davriy nashrlarda qizg'in o'rganilayotganligi, bahs-munozaraga sababchi bo'layotganligi ham ta'lim-tarbiyadaning

o'rni naqadar muhimligiga guvohlik beradi. Mavjud materiallarni jamlash uning nazariy va amaliy jihatlarini O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida tahlil qilish, pirovard natijada, qator kontseptual texnologiyalarning empirik asosini yaratishga harakat qilish, shuningdek, uni ilmiy bilimlar tavsil qilish va ularni doirasiga o'tkazish kabi ishlar ham jadal davom ettirilmoqda.

Avvalo nega bugunga kelib pedagogik texnologiyalarga qiziqish shunchalik kuchaydi, degan savol tug'iladi. Aytish mumkinki, rivojlanayotgan davlatlarda, odatda, birinchi navbatda pedagogik texnologiyaga ta'lim sohasidagi siyosatning bosh vazifasi sifatida qarab kelingan. Bunday yondashish YUNESKO tomonidan ham maqullandi va 1972-yilda kirib keldi va grekcha ikki so'zdan „texnos" - hunar va „logos" fan so'zlaridan tashkil topib „hunar fani" ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab

bera olmaydi. Texnologik jarayon deyilganda – mehnat qurollari bilan mehnat vositalariga ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish bo'yicha qilingan mehnat va jarayonlar tushuniladi. Demak bu ta'rifni istalgancha sharhlash mumkin, bunda: pedagogik texnologiya – bu o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda muayyan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb ta'riflasak hato bo'lmaydi.

Qator yillardan beri, pedagogik texnologiya o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelindi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushuncha yangicha talqin etila boshlandi. Texnologiya deganda sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektga sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi

(pedagog) ning ŏqitish vositalari yordamida ŏquvchi - talabalarga muayyan sharoitlarda kŏrsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bŏlgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin. Ta'riflan nazariyasi bŏyicha ijtimoiy hodisani pedagogik texnologiya, desa bŏladi.

Mustaqillikka erishgan Ŏzbekiston olimlari xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy ijtimoiy, siyosiy va ilmiy ma'rifiy aloqalar ŏrnata boshladilar. Natijada yurtimizga ilg'or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. Shular qatorida, jahondagi progressiv pedagogik texnologiyalarni tushunchalari ham kirib keldi va pedagogik jamoatchiligimiz fikrini chulg'ab oldi.

Oxirgi yillarda, Rossiya bilan Ŏzbekistonda pedagogik texnologiyani ŏrganish yŏlida ancha ishlar qilindi. Shu jumladan, O'zbekiston olimlari bilan hamdŏstlik davlatlari ŏrtasida ham pedagogik texnologiyalarning loyihalarini tuzish bŏyicha ancha ishlar qilindi.

Pedagogik texnologiyani ŏquv jarayoniga

olib kirishning zarurligini bunday mamlakatlar ichida birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslar bergan rossiyalik olim V. P. Bespalkoning fikricha „Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir".

Rossiyalik olimlardan biri V. M. Monahov „Pedagogik texnologiya avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir - degan qisqacha ta'rifini bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborini qaratadi. „Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirish, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib bu jarayon ijrochisining sub'ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi" degan u.

M. V. Klarin fikricha „Pedagogik texnologiya - o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan ko'rsatkichlardan maqsad kelib

chiqib, o'quv jarayonini loyihalashdir". L. Ya. Zernerning fikriga ko'ra „Pedagogik texnologiya - o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi".

O'zbekistonlik metodist B. L. Farberman pedagogik texnologiya yangicha yondashuv bo'lib,, Pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ongi ifodasidir". U pedagogik jarayonning texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga soladigan, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir.

Polyak olimi Dj Bruner„ O'qitish texnologiyasi bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi ma'lum yo'l - yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi" ekanligini e'tirof etdi. Tizimli yondashish ta'siri ostida asta-sekinlik bilan pedagogik texnologiya mohiyatiga aniqlik kiritila borildi. Rus olimasi N. F. Talizina esa uning mohiyatini „ belgilangan o'quv maqsadiga

erishishning oqilona usullarini aniq-
lashdan iborat" deb tushuntiradi.
Yuqorida keltirilgan ta'riflardan kŏrinib turibtiki, ŏtgan yillarda PT ŏquv jarayoni berilgan dastlabki ta'lim maqsadi va mazmunidan kelib chiqib loyihalashdir deya ifodalanadi. Bu bir jihatdan tŏğri lekin teranrok fikr yuritilsa, uning bir yoqlamaligi yaqqol kŏzga tashlanadi yoki bunday yondashishda ŏquvchi shaxsining inkor etilishi seziladi. Bu kamchilikni birinchi bŏlib akademik V. Bespalko payqadi va ŏz asarida "Pedagogik texnologiya - bu ŏqituvchi mahoratiga bog'liq bŏlmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan ŏquvchi shaxsini shakillantirish jarayonini ifodalash loyihalashdir" deb ta'rif beradi.
Pedagogik texnologiya berilgan ta'riflarning qiyosiy tavsiflari keyingi paragitlarda va paragraflarda bu haqida batafsil keltirilgan.
Shu ŏrinda hamkasbimiz H. Abdukarimovning "Ma'rifat" gazetasida 1998-yil 27 mayda bosilgan "Zamonaviy pedagogik texnologiya nima" maqolasini didaktik

nuqtai nazardan baholashni kitobxon-
lar hukmiga havola etaylikda undagi
bir - biriga zid va ilmiy asoslanma-
gan ikki ta'rifni keltirib o'tamiz.
1 „Milliy dastur" bu yangicha pedagogik
texnologiyaning o'zi".
2. „Pedagogik texnologiya - pedagogik maho-
rat to'g'risida fan" bu boradagi ta'rif-
larning sillma-siligi bir tomondan
bu mavzuning u yoki bu jihati soxta
yechilganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan
pedagogik texnologiyani ta'lim amali-
yotiga joriy etishga bo'lgan urinish-
larni ifodalaydi.

## Pedagogik texnologiya bo'yicha fikirlar.

| | |
|---|---|
| V. P. Bespalko | Pedagogik texnologiya bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakillantirish jarayonining loyihasidir. |
| V. M. Monaxov | Pedagogik texnologiya avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir. |
| M. V. Klarin | Pedagogik texnologiya o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda oldindan belgilab olingan ko'rsatkichlardan maqsad kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashdir. |
| N. Saidaxmedov | Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi tarbiyalashning o'qitish ta'lim vositalari yordamida o'quvchi talabalarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgi shaxs sifat shakl jarayo |
| I. Ya Lerner | Pedagogik texnologiya o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi |
| B. L. Farberman | Ped Tex ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv o'zib pedagogikada ijtimoiy muhandislik uning optimal loyihasini tuza digish bilan bog'liq ijtimoiy xodisa |
| Dj. Bruner | O'qitish texnologiyasi - bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi ma'lum yo'l - yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar soxasidir |
| X. Abdukarimov | Milliy dastur - bu yangicha pedagogik texnologiyalarning o'zi pedagogik texnologiya pedagogik mahorat to'g'risida fan. |

Innovatsion ta'lim turlari uchun umumiy bo'lgan pedagogik tizim loyihasi

O'tgan bir necha yillar davomida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda o'rganilib kelindi va u turli faoliyat doirasida edi. Bugungi kunda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga mamlakatimizda keng imkoniyatlar tug'ildi. Nazariya va amaliyat birligining ta'minlanayotganini zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochmoqda.

Bizning fikrimizcha, yangi pedagogik texnologiyaga pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida qarash yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim, deb qarash mumkin emas. Pedagogik texnologiya pedagogika fanining alohida texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyat yo'nalishlarini aniqlaydi. Bu yerda izlanishlarning mohiyati pedagogik tizimni tashkil etuvchi elementlarni o'rganish asosida modernizatsiya qilishdan iboratdir. Sababi har qanday o'quv - tarbiyaviy jarayonni tashkil etish u yoki bu pedagogik tizimni aks ettiradi

Demak, pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir.
Unda, pedagogik tizim mohiyati nimadan iborat? Pedagogik tizim o'zaro bog'liq bo'lgan vositalar, usullar va jarayonlar yig'indisi bo'lib, shaxsdagi muayyan sifatlarini shakillantirishga pedagogik ta'sir etishni maqsadga muofiq tarzda amalga oshiradi. Binobarin, har bir jamiyatda shaxsni shakillantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo'lishi kerak. Agar maqsad o'zgarsa tizim ham o'zgarishi shart.
„Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo'ydi. Demak milliy dastur bizda ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat buyurtmasi sifatida qabul qilinayapti. Faqat davlat buyurtmasigina ta'lim va tarbiyaning aniq maqsad va vazifalarini belgilab beradi yoki oliy ta'lim uchun pedagogik texnologiyalarning mavjudlik shartlarini

kafolatlaydi.

Ta'lim turlari uchun umumiy bo'lgan pedagogik tizim loyihasini quyidagicha ifodalash mumkin.




Olib borilgan tadqiqot ishlarining natijalari har qanday pedagogik tizim o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi invariantiv elementlardan tashkil topishini ko'rsatib beradi.

1. Talablar
2. Ta'lim va tarbiyaning maqsadi.
3. Ta'lim va tarbiyaning mazmuni
4. Ta'lim jarayoni yoki didaktik jarayon
5. Pedagog yoki o'qitishning texnikaviy vositalari
6. Ta'lim va tarbiyaning tashkiliy shakllari.

Yuqorida keltirilgan pedagogik tizim har qanday ilmiy nazariyaga xos bo'lgani kabi quyidagi ikki tushunchani

qamrab oladi: didaktik masalalar va ularni hal etish texnologiyasi. Didaktik masalalar pedagogik tizim doirasida inson faoliyatining har qanday sohasi kabi aniq maqsad va unga erishish uchun shart-sharoitlar hamda bu faoliyat uchun asboratlar bo'lishi lozimligini taqozo etadi.

Shuni alohida taqidlash kerakki, pedagog-metodistlar hozirga qadar didaktik masalalarni aniq ifodalashga va unga mos keladigan o'qitish texnologiyasini ishlab chiqarishga e'tibor berishga. Shu nuqtai nazardan, milliy dastur ijtimoiy buyurtma sifatida yangi pedagogik texnologiya "yangi" so'zining qo'shib ishlatilishi nazariyachi olimlarimiz va o'qituvchilarni bir qadar o'ylantirib qo'ydi, endilikda ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashga eskicha yondashish mumkin emasligini ko'pchilik anglab yetmoqda. Shunday ekan, pedagogik texnologiyani qanday yangilash mumkin. E'tiborni yuqorida berilgan pedagogik texnologiyaning tuzilishiga qarataylik. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma

ŏz ta'sirini kŏrsatadi va ta'lim - tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. Maqsad esa pedagogik texnologiyaning bosh bŏg'ini hisoblanib u pedagogik tizimning qolgan elementlarini ŏz navbatida yangilash zarurligini keltirib chiqaradi. „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'lim - tarbiyaning maqsadini yangi yŏnalishga burdi, ya'ni ta'lim tizimini ŏtmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan tŏla halos etish rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ustuvor vazifasi, deb belgilandi. Demak ta'lim - tarbiya maqsadi yangilandi, unga mos holda mazmunning yangilanishi tabiiydir.

Ta'lim mazmuni davlat ta'lim standartlari DTS ŏquv dasturlari, darslik va ŏquv qŏllanmalarida ŏz ifodasini topadi Shu munosabat bilan olimlarimizga fan sohalari bŏyicha ta'lim mazmunini ishlab chiqish kabi sharafli va masulyatli yuksak vazifalar yuklandi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiyada didaktik masalalarni o'z yechimlarini topishi milliy dasturni ro'yobga chiqarishning muhim bosqichidir. Agar pedagog qo'lida bilimga chanqoq talabalar, fan maqsadiga mos mazmundagi dastur, darslik va qo'llanmalar mavjud bo'lsa, u didaktik jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bilim faoliyatining tashkiliy shakllaridan samarali foydalanib yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga uchil va ketma-ket joriy etish mumkin. Shu boisdan, o'qituvchi mahoratiga ko'p narsa bog'liqligi, uning pedagogik tizimda tutgan o'rni haqida batafsil to'xtalish zarurligi tug'ildi.

1 O'qituvchi davlat buyurtmasiga mos keladigan ta'lim - tarbiya maqsadini aniq va ravshan belgilashi kerakki, natijada ma'lum vaqt ichida unga erishishni ta'minlaydigan didaktik jarayoni tuzish va joriy etish to'g'risida xulosa qilish mumkin bo'lsin.

2. O'qituvchi pedagogik tizimda belgilangan maqsadga to'g'ri keladigan o'quv - tarbiyaning jarayon mazmunini o'quv

dasturi bo'yicha chuqur egallashi, muntazam ravishda o'z pedagogik mahoratini ilmiy - texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda mustaqil ravishda kengaytirib borishi zarur.

3 O'qituvchi pedagogik tizimning tarkibiy elementi sifatida didaktik jarayoni amalga oshirish bilan tanish bo'lishi kerak bu birinchidan, jadallashtirish va tabiatan monandlik talabidir. Jadallashtirish didaktik masalalarni ma'lum vaqt doirasida birmuncha tez va yuqori saviyada hal eta oladigan didaktik jarayonni qo'llashni talab etadi. Ta'lim va tarbiyaga bu talabni aniqlab beruvchi omil talaba o'quvchilarning ma'lum faoliyatni o'zlashtirish tezligi hisoblanadi. Ikkinchidan, o'quv - tarbiyaviy jarayonni shunday tashkil etish lozimki, bunda mumkin qadar talabalarning keng doirada tajriba egallashiga imkon tug'diradigan va ularning aqliy malakasini rivojlantira oladigan mexanizm vujudga kelsin. Bu talabni aniqlab beruvchi omillar talabalarning o'qishga bo'lgan hoxishi, o'quv mehnatiga munosabati va sog'lom psixo-fiziologik faoliyatni kabilardir.

4. Ŏqituvchi didaktik jarayonni amalga oshirishda ŏqitishning samarali shakllaridan foydalana olish kerak. Ŏqitishning tashkiliy shakllari tŏǧri tanlashi pedagogik tizim elementlarining ma'lum qonuniyat asosida bir - birlari bilan bog'liq ekanligini bildiradi. Bu boshlanishlardan foydalanish va eng maqbul bŏlgan tashkiliy shakllar topish ta'limda rasmiyatchilikni yŏqotishga yŏl ochadi.

5. Ŏqituvchi pedagogik tizimning ishtirokchisi bŏlgan talabning ta'lim mazmuni va tarbiya ta'sirini qay darajada egallayotganligini eng maqbul usullar yordamida doimo nazorat qilib borish lozim. Bu tŏǧrida olingan axborotlar esa pedagogik tizimni maqsadga muofiq tarzda boshqalar imkoniyatini beradi yoki tizimdagi qaysi elementning mazmuniga tuzatish kiritish kerak ekanligini aniqlaydi.

Shunday qilib, pedagogikada hos bŏlgan texnologik jarayonni amaliyotga tadbiq qilish bilan bog'liq pedagog mahoratning ba'zi qirralari tŏǧrisida tŏxtaldik. PT ning ilmiy harakterga ega ekanligiga e'tiborni qaratgan

holda uning amaliy yo'nalishga xos-ligini uni aniq masalalarini hal qilishda qo'llash mumkinligini e'tibor etish kerak.

Demak nazariyani o'quv amaliyoti bilan bog'lash zaruriyatini aniqlash zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tuzilmasini aniqlab beradigan bir qator holatlarni belgilashga imkon beradi.

1. Zamonaviylik ta'lim amaliyotiga ilmiy asoslangan va tajriba sinovida tekshi-rilgan didaktikaga oid yangiliklar, tar-tib - qoidalarni joriy etishning majbu-riyligini taqozo etadi.

2. O'quv jarayonini maqbullashtirish ke-chiktirib bo'lmaydigan masaladir.

3 Ilmiylik ta'limda yangi vositalar, faol metodlar, didaktik materiallarni tatbiki-liy masalalarning yangi yechimlarini qo'llashni taqozo etadi.

4. Talaba va o'qituvchining dasturli fao-liyati o'quv jarayonidan jamiki ortiqcha harakatlarni yo'qotishga, yuqori samara-dorlikni ta'minlashga va kerakli natijalarni qo'lga kiritishga intilishni ta'minlaydi.

5. Ta'limni faollashtiruvchi axborot tex-

nologiyasini va texnik vositalardan foydalanish samarasini belgilayotgan didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy PTning eng asosiy belgilaridan biridir

6. O'quv jarayoni uchun moddiy-texnika bazasining maqsadga muofiqligi PTni navbatdagi belgisidir.

7. O'quv tarbiyaviy jarayon natijalarini sifatli baholash PTning o'z oldiga qo'ygan natijaviy maqsadidir.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan fikirlar tahlili asosida quyidagicha xulosa qilish mumkin.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o'zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog'liq hususiy nazariyasiga ega u birinchi galda o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy, asosda qurishga yo'naltirilgan, o'qitishning axborotli vositalaridan va didaktik materiallardan faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

Ta'lim ijtimoiy tizimning bir qismi bo'lib, u o'z rivojlanishida jamiyat taraqqiyotining yo'nalishlariga bog'liq ravishda ro'y berayotgan aksariyat o'zgarishlarga

muofiq o'zgara boradi. Ana shu doirada innovatsiyalar ta'lim oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Pedagogika nazariya va amaliyotning tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim sohasiga umumjahon ahamiyatga molik bo'lgan quyidagi asosiy yangiliklar xosdir:

- Moliyalashtirish va boshqarish sohalaridagi o'zgarishlar.
- Ta'lim tizimi tuzilishidagi muntazam o'zgarishlar.
- Ta'lim texnologiyasida ro'y beradigan doimiy o'zgarishlar va hokazo.

Shunday qilib, yangi texnik vositalar va yangi texnologiyalar ta'limga yangi tartib qoidalarini kiritish uchun eng muhim komponentlardan biridir. Biroq ularni qanday qilib tadbiq etish va amalda foydalanishni bilib olish, aslida, hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Buning uchun maxsus tayyorgarlik, katta kuch va ko'p vaqt sarflash lozim. yangi ta'limda innovatsion jarayonining tadbiq qilinishi bilan o'qituvchining roli pasayadi emas, balki o'quv-tarbiya jarayonining

yuksak bosqichlarda yana ham ortadi. Bu esa pedagogdan o'z ilmini yangidan va tanqidiy taxlil etishni talab etadi. Chunki yangi tartib qoidalardan foydalanadimi yoki axborot manbai sifatida qolib ketadimi, bu narsa ayni o'qituvchiga bog'liq. O'qituvchi o'quv texnologiyasining bevosita tartib-qoidalariga jiddiy tayyorlangan, yo'l-yo'riq olgan, moslangan ruhlangan bo'lishi lozim.

Pedagogning ijodiy potentsiali uning o'z ijodkorlik sifatlarini shakillantirishga intilishida, pedagogik odobining namoyon bo'lishida, qobilyatli va kasbiy maxorati takomillashtirishda, kutulmagan vaziyatlarda topqirlik qila olishida, o'quvchi talabalarni komillik sari mohirlik bilan yetaklay olishda ko'rinadi.

Pedagogik jarayonda o'zining yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobilyatini doimo rivojlantiradigan va takomillashtiradigan o'qituvchi iqtidorli hisoblanadi. Pedagogik ijodiyot-o'z mohiyatiga ko'ra odamning yangi bilimlarini hosil qilish va takomillashtirish bo'yicha ijodiy ishining kasbiy mahorat ifodasidir. Pedagogik izlanish o'qitishda doimo ma'lum yo'nalishdagi

subʼektga nisbatan aniqlashtirilgan bŏladi. Pedagogik izlanish natijasida yangilikni asosiy namoyon bŏlishi shakillari kundalik ŏquv - tarbiyaviy muammolarning nostandart yechimlari, pedagogik taʼsir usullarining metodik va nazariy jihatdan mukammal ishlab chiqilishi, ixtiro etilishi va takomillashuvi hamda ulardan samarali foydalanishda kŏrinadi.
Yangi taʼlim tizimi mazmuniga ŏtmishning qimmatbaxo maʼnaviy qadriyatlarini kiritish va unutilayotgan yoki taqiqlangan baʼzi bilarini qayta tiklashdan maqsad ŏtmish oldida egilish emas balki unga tayanib. ijodiy foydalangan holda rivojlanishning yangi pogonasiga chiqish demakdir.
Bugun biz yangi kŏrinishdagi taʼlim tizimini ishlab chiqishda Turkiston tsivilizatsiyasining eng kŏp gullab yashnagan davirlardagi yaʼni VII - XII asirlardagi mehnat va kasb taʼlim tajribalariga tayanmoqimiz lozim. Ŏsha davr madaniyati va fanning asosini taʼlim tashkil etgan, rivojlanishning eng yuqori chŏqqilariga erishish yŏlida faylasuf va pedagoglarning aniq va kontseptual goyalari shakillangan edi.

Xozirgi zamon atamasi bilan aytganda, ta'lim va tarbiya, ilm bu uzluksiz ravishda ma'naviy jismoniy va aqliy salohiyatini rivojlantirish jarayonidir. O'sha davr faylasuflari insonning ma'naviy jismoniy va aqliy hususiyatlarini yakka mujassamlikda, deb belgilashgan. Bunday falsafiy pedagogik kontseptsiya ta'lim jarayonini shaxsning ma'naviy axloqiy hususiyatlarini boshlab beruvchi omil deb, e'tirof etiladi. Bu kontseptsiyalarining mazmuni faqatgina faylasuflar ishlarida emas, balki mehnat va ijodning turli vakillari asarlarida ham o'z aksini topgan edi.

Masalan, risola bu hunarmandlar va ularning o'quvchilari uchun mo'ljallangan qo'llanma bo'lib, unda urf-odat rasm-rusum, turli udumlar majmuasi aks ettiriladi. Risolalar kichik hajmdagi kitobcha shaklida bo'lib, ularning mazmuni ushbu soha hunarmandchiligi bo'yicha mashg'ulotlar va ba'zi bir pand-nasihatlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Shuni alohida ta'qidlab o'tish joizki deyarli barcha risolalar bir xil qolipda tuzilgan bo'lib, odatda

kitobchaning boshlanishida butun olam egasi bo'lgan Alloh payg'ambarlar va uning barcha choriyalarini ko'klarga ko'tarib maqtash, so'ng ushbu hunarmandchilikning Alloh ne'mati ekanligi, keyin esa hunarmand ishi boshlanadigan va har bir hatti harakati yoki lozim bo'lgan Quron oyatallari yoki jarayondan oldin aytish lozim bo'lgan Qur'on oyatallari yoki boshga duolar ustoz hunarmandlarning ma'naviy axloqiy sifatlari yoritiladi.

Risolalarni tarqiq etish natijasida ularni Ilgaro o'z hunarmandligida o'ziga xos pedagogik qo'llanma sifatida xizmat qilganligiga, risolalarda zamonaviy til bilan aytganda hunarmand kasbiy faoliyatining mazmuni aks etganligiga guvoh beramiz. O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrda milliy mafkurani shakillantirish yoshlarni milliy va umum insoniy qadriyatlar ruxida tarbiyalash eng muhim vazifalardan bo'lib qolmoqda. Chunki davlatni asosini ma'naviyat tashkil etadi, ma'naviyatga e'tibor bermagan davlatning kelajagi ham bo'lmaydi. Milliy pedagogika tajribalariga murojat qilish esa bunday maqsadlarga erishishning

asosiy omillardan biridir.

Yoshlarni mustaqil bilim olishga o'rgatish bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalardan biridir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bugungi kunda yoshlarni ma'naviy - intellektual rag'batlantirishning ahamiyati kattadir. Ma'naviy intellektual sifatlarini zamonaviy usullarda aniqlash tarbiyaviy jarayonga samarali o'zgarishlar kiritadi. O'quvchi yoshlarning, talabalarning ma'naviy - intellektual shakillanish sifatlaridagi yutuq va kamchiliklarni odilona baholash tizimi tarbiya mazmuni, usullari va uning tashkiliy shakillarini yaxshilashga doir tavsiyalar kiritish lozim. O'quvchi va talabalarning bilimini, aqliy holatini nazorat qilish va baholash davlat miqyosidagi muhim ahamiyatga ega ishdir. Shu bilan birga nazorat va baholash jarayoni o'quvchi bilimining boyishiga, ular shaxsining rivojlanishiga hamda tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Pedagogika fani bilimlarni o'z vaqtida nazorat qilish va baholashning uch vazifasi borligini alohida ta'kidlaydi.

1 O'zlashtirishni nazorat qilish va baholash natijalarga qarab davlat ta'lim

standartlarning qanday bajarilayotganligi tõg'risida xulosa chiqariladi va galdagi vazifalar belgilanadi.

2. Bilimlarni nazorat qilish va baholash natijasida õquvchi - talabalarda bilimlar vazifalar belgilanadi.

3 Ta'lim sohasidagi yaxshi natijalar yoshlar tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir kõrsatadi. Ularda kõtarinki rux, õz kuchiga bõlgan ishonch va qiziqishlar paydo bõladi.

Jaxonning ilg'or tajribalari va kõplab pedagoglar mehnatining natijasi õlaroq reyting uslubi bugungi kunning eng maqbul nazorat mezoni deb qabul qilindi.

Reyting deganda - baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, biron-ta hodisani oldindan belgilangan kõrsatkich bõyicha baholash tushuniladi.

Reyting nazoratida test usuli ham samarali qõllaniladi.

Test deganda aniq vazifaning takomillashganlik darajasini aniqlash hamda sifat va miqdoriy õlchamlarda belgilash imkonini beradigan faollikning biron shaklini paydo qiluvchi va biron aniq topshiriq

shaklidagi sinov quroli tushuniladi.
Testning afzalligini quyidagicha belgilash mumkin.

• Nazorat uchun kam vaqt sarflanadi
• Nazorat va amaliy bilimlar darajasini ob'ektiv sharoitda aniqlash imkonini beradi.
• kŏp sonli talabalar bilan bir vaqtning ŏzida nazorat olib borish mumkin.
• Bilim natijalari ŏqituvchi tomonidan tezkorlik bilan tekshiriladi va hokazo

Reyting nazorat tizimining asosi sifatida ŏquv rejasiga kiritilgan. Har bir fan bŏyicha talaba ŏzlashtirishining sifat kŏrsatkichlari ballar bilan ifodalanadi. Har bir smestrdagi fanlardan tŏplangan ballar yig'indisi tarzida talabaning ŏzlashtirishini baholash jarayoni chorak va semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi nazorat turlari shaklida tashkil etiladi.

• joriy nazorat;
• oraliq nazorat;
• yakuniy nazorat;

Joriy nazorat - bu ŏrganiladigan mavzu-

larining ŏquvchi, talabalar tomonidan qanday ŏzlashtirayotganini dars jarayonida muntazam ravishda nazorat qilishdan iborat. Bu nazorat ŏqituvchi tomonidan qanday ŏzlashtirganini muntazam ravishda dars jarayonida nazorat qilishdan iborat. Bu nazorat ŏqituvchi tomonidan ŏtkazilib, talabaning bilim darajasini shu fanning har bir mavzusi bŏyicha aniqlab borishni kŏzda tutadi.

Oraliq nazorat - bu mazkur fan bŏyicha ŏtilgan bir necha mavzularni ŏz ichiga oladi, va shu qism bŏyicha talabaning bilimini aniqlashga hizmat qiladi. Oraliq nazorat darsdan tashqari vaqtda ŏtkaziladi va talabalarga ŏzlashtirish kŏrsatkichlarini oshirish imkonini beradi.

Yakuniy nazorat - bu nazorat semestr uchun belgilangan mavzular tŏliq ŏqitib bŏlingach ŏtilgan mavzular bŏyicha yozma yoki og'zaki usullarda, shuningdek test sinovlari shaklida ŏtkaziladi. Talabaning fan bŏyicha semestrdagi reyting bahosi joriy oraliq va yakuniy nazoratlarda tŏplagan

ballari bo'yicha aniqlanadi.
O'quv, pedagogik, ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyotlari davrida olingan bilimlar ham reyting ballari bilan baholanadi.
Mustaqil O'zbekiston bugungi kunga kelib jahonga o'z nomini tanitdi. Iqtisodiy siyosiy jihatdan yuksaldi. Shu bilan birga, O'zbekistonning rivoj langan mamlakatlari qatoridan o'rin olish uchun bugungi kunda kelajak ruhiga mos bo'lgan zamonaviy kadrlarga ham extiyoj sezila boshladi. Mustaqillik davlat o'zining muhim tarixiy hujjatlariga ham ega bo'ldi va ular orasida „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" alohida o'rin tutadi.
Dasturda e'tirof etilgan kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarida shu narsa alohida belgilandiki, ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish ta'lim tarbiya dasturlarining intellektuallashuvini ta'minlaydi. Demak, yangi asr - informatsion texnologiyalar asri bo'lishi bilan bir qatorda ularning o'quv jarayonlariga keng ko'lamda joriy etilishini ham ta'minlaydi.

## Maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish

### Innovatsion ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi omillar.

Pedagogik texnologiya pedagogning talabalarga ta'sir qilishni tashkil qilish bo'yicha kasbiy ahamiyatga molik malakalar tizimini aniqlab beradi, pedagogik faoliyatning texnologikligini aniqlash usullarini taklif etadi. Texnologiya grekcha so'z bo'lib, „texnos" san'at, mahorat, „logos" ta'limot degan ma'nolarni bildiradi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida „Yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, talabalarni o'qitishni jadallashtirish" ko'zda tutilgan. Pedagogik texnologiyaning o'zlashtirib olgan mahoratli pedagoglar uchun mazkur usulning an'anaviy usuldan ko'ra samarali ekanligi ma'lum. Bu esa pedagoglar, professor-o'qituvchilar uchun kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda pedagogik texnologiyani o'zlashtirish va amalda qo'llash zarurligini bildiradi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrning 40-yillarida paydo bo'ldi va turli rivojlanish bosqichlaridan

o'tib kelmoqda, hozirgi kunda "Ta'lim texnologiyasi" "Pedagogik texnologiyalar" "O'qitish texnologiyasi" "Innovatsion texnologiyalar" "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar" "Rivojlantiruvchi texnologiyalar" kabi iboralar keng qo'llanilmoqda.

Inson hayoti axborotlar bilan chambarchas bog'liq. Insonning har bir harakati axborot olish va uzatish yoki undan foydalanish, uni o'rganish, o'zlashtirish, saqlash va boyitishdan iborat. Shuning uchun ham hozirgi insoniyat tsivilizatsiyasi axborot tsivilizatsiyasi deb ataladi. XXI asrni ham axborot asri deb bejizga atashmagan.

Tsivilizatsiya axborotni to'plash, tahlil qilish va undan foydalanish hamda atrof-muhit va o'zi haqida axborot yaratish uchun eng ko'p ma'lumot olishga qodir bo'lgan madaniyatning yuqori to'g'ri holatidir".

Bu ta'riflardan axborotni avloddan-avlodga uzatishning, ya'ni ta'lim-tarbiya ishining ahamiyati qanchalik muhim ekanligi ko'rinib turibdi. Ya'ni ta'lim-tarbiya tsivilizatsiyani mavjudlik sharti hisoblanadi.

Ushbu aytilganlar asosida pedagogik texnologiyaning quyidagi eng qisqa

umumlashtirilgan ta'rifini keltirish mumkin.

„Pedagogik texnologiya" har tomonlama barkamol insonni shakllantirish faoliyatidir."

Shu bilan birga, pedagogik texnologiyaning keng kŏlamli, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda uning quyidagi yana bir nechta ta'riflarini keltirish mumkin.

Pedagogik texnologiya axborotlarni ŏzlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardan yangi ma'no - mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga ŏrgatish jarayonidan iborat.

Pedagogik texnologiya - ta'lim metodlari, usullari, yŏllari hamda tarbiyaning vositalar yig'indisi u pedagogik jarayonni tashkiliy - uslubiy vositalari majmuidir.

Demak pedagogik texnologiya insonga (ta'lim tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bŏyicha ta'sir kŏrsatish faoliyatidan iborat.

Pedagogik texnologiya jarayonida ŏqituvchi rahbarligida ta'lim oluvchi mustaqil ravishda bilim oladi, ŏzlashtiradi, ŏrganadi va rivoj lanadi.

Bu o'quv faoliyatini amalga oshirish, uni tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadqiq qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat qilish va baholash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiya - bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'z oldiga ta'lim shaklini samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi, texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olgan holda bilimlarni yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usulidir. "YUNESKO"

Pedagogik texnologiya - har tomonlama rivojlangan yuqori malakali mutaxassis tayyorlash maqsadida loyihalashtirilgan, dasturlashtirilgan va oldindan aniq belgilangan tarzda samarali tashkil qilinuvchi ta'lim jarayonidir.

Tizim - tartiblangan, o'zaro uzviy bog'langan va birgalikda umumiy funktsiyani bajaruvchi elementlar to'plamidir.

Ta'lim jarayoni - ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi ma'lum maqsadlar asosida belgilangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirlashuv jarayonidir.

Axborotlarni ōzlashtirish jarayonida quyidagi bilish jarayonlari ishtirok etadi.

=> Extiyoj (biologik, moddiy va ma'naviy)
=> Motiv (ichki va tashqi)
=> Motivatsiya (muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish)
=> Faoliyat va faollik (muloqot, ōyin, ōqish va mehnat)
=> Diqqat (ixtiyoriy, ixtiyorsiz, ixtiyoriydan keyingi
=> Sezgi (kōrish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri kuyush)
=> Idrok va tasavvur (shakillarini, ranglarini, belgilarini, harakatini, masofani, vaqtni kōrish va eshitish)
=> Xotira (mexanik, obrazli, harakat, qisqa va uzoq muddatli, ixtiyoriy va ixtiyorsiz tezkor)
=> Tafakkur (analiz, sintez, qiyōslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish klassifikatsiyalash, sistemalashtirish).
=> Hayot, ijodkorlik (yangi timsollari hosil qilish va yaratishdan iborat jarayon)

Ta'lim oluvchilarning shaxsiy xususiyatlari bilimlarini ōzlashtirishda muhim ōrin egallaydi.

• Ekstrovert talaba - faol ōqitish jarayonini

ŏzga kishilar bilan ŏzaro munosabat ta'sirlashuvi (ijtimoiy - guruhiy topshiriqlarni amalga oshirishi, amaliy vazifalarini bajarishi, guruh bilan birga ta'lim olishi) avzal kŏradi.

• Introvert talaba - individual ŏqitish usulini, ma'ruza tinglashni, kitob ŏqishni va yozma vazifalarni bajarishni, mustaqil ishlashni, guruhdan alohida ta'lim olishni va ŏrganishni yoqtiradi.

Ŏzlashtirish hususiyatlari bŏyicha:

• Eshitish orqali
• Kŏrish orqali
• Harakat orqali.

Innovatsion ta'lim usullarining samaradorligi.

Talabalarni axborotni eslab qolish kŏrsatkichlari

Maruzalar - 5 %
Eshitib, kŏrib idrok etish - 20%
Kŏrgazmali - harakatli tasvirlar - 30 %
Mustaqil ŏqish - 40%
Amaliy mashgulotlar - 50 %
Interaktiv usullar - 75 %
Bahs munozara - 90%
Bilimlarni amaliyotda qŏllash - 100%

Ta'lim jarayonning samaradorligini belgilovchi omillar.

1. Pedagogning professional va pedagogik mahorat
2. O'quv dasturlari, o'quv adabiyotlari, qo'llanmalar va axborot manbalari bilan yetarli darajada ta'minlanganligi.
3. Ta'limni turli xil zamonaviy shakllari va usullaridan keng foydalanish.
4. Ta'limda turli xil ko'rgazmali va texnik vositalardan, axborot texnologiyalaridan umumiy foydalanish
5. Pedagog va talaba munosabatlarining o'zaro ijobiy - emotsional ko'rinishga ega ekanligi
6. Tashabbuskorlik va faollikni talab qiluvchi turli xil o'quv mashg'ulotlari, seminar-treninglarni tashkil qilish.
7. Ta'lim oluvchining bilish jarayonlarini faol ishga solish.
8. Talabalarda bilim jarayonlarini ixtiyoriylik va irodaviy xususiyatlarining mavjudligi.
9. Talabalarda o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish.
10. Talabalarda o'qish motivatsiyasini hosil qilish va rivojlantirish.
11. Pedagoglarning ilmiy faoliyati, tashabbuskorligi va kasbiy - pedagogik mahoratini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish

12. Talabalarning tashabbuskorligi va faoliyatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish.

An'anaviy dars - muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan ta'lim modelidir. Ma'lumki, an'anaviy dars ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi.

An'anaviy ta'limda ko'proq ma'ruza savol - javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalinadi. An'anaviy ta'lim usullari qiziquvchanlik, izlanuvchanlik tashabbuskorlik va ijodkorlik halal beradi. Majburlash, qat'iy burch va majburiyatlar birga kerakli bo'lgan natijalarni yo'qqa chiqaradi. Shu sabab, ko'p hollarda samaradorlik past bo'lib ta'labalar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar, Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars shakillarini ijobiy hususiyatlarini saqlab qolgan holda, unga ta'labalar faoliyatini faollashtiradigan turli xil metodlar bilan boyitish talabalarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan talabalarning qiziqishini orttirib, ta'lim jarayonida ularning faolligi doimo rag'batlantirilishi, talabalarni o'quv materiyallarini bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda baks munozara, interaktiv metodlarni qo'llash, turli xil qiziqtiruvchi muammoli vaziyatlarning keltirilishi, talabalarni amaliy vazifalarni mustaqil bajarishga undash, turli xil nazorat va baholash usullaridan foydalanish, ta'lim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.

An'anaviy ta'lim modeli
(ta'lim jarayoni markazida pedagog bo'lgan)

Afzalliklari.

- Ma'lum ko'nikmalarga ega hamda aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydalanish.
- O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayoni va o'qitish muhiti yuqori darajada nazorat qilinadi.
- Vaqtdan unumli foydalinadi.
- Kuchli nazorat va talab asosida sifat va samaraga kelib chiqadi.
- Aniq ilmiy - nazariy bilimlarga tayanadi.

• Ŏqituvchi shaxsiga, uning ta'lim jarayonidagi ishtirokiga kuchli talab qŏyiladi.

Kamchiliklari.

• Talabalarga tayyor bilim va tushunchalar beriladi, bu esa mustaqil ta'lim olish kŏnikmalarini rivojlantirmaydi.
• Talabalar passiv ishtirokchi bŏlib qoladilar.
• Ŏqituvchining tŏla nazorati barcha talabalar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi.
• Talabalar ŏqituvchi bilan bevosita muloqaga kirisha olmaydi.
• Eslab qolish darajasi hamma talabalarda bir hil bŏlmaganligi sababli, guruh bŏyicha ŏzlashtirish darajasi past bŏlib qolishi mumkin.
• Mustaqil ŏrganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.
• Mexanik xotira ishlaydi (yodlash), fikrlash ehtiyoji yŏq
• Ta'lim jarayoni avtoritar usulda, ya'ni yakkahokimlik bilan boshqariladi.

Noan'anaviy ta'lim modeli:
(ta'lim jarayoni markazida talaba bŏlgan)

Afzalliklari.

• Talabaning tashabbusi qŏllab - quvvatlanadi
• Ŏqitish mazmunining yaxshi ŏzlashtirilishiga olib keladi.
• Tushunchalarni amaliyotda qŏllash uchun

sharoitlar yaratiladi.

- O'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etiladi.
- Motivatsiya yuqori darajada bo'ladi.
- O'tilgan material yaxshi eslab qolinadi.
- Muloqotga kirishish ko'nikmasi takomillashadi.
- O'z - o'zini baholash rivojlanadi.
- Talabalar predmetning mazmuniga, o'qitish jarayoniga ijobiy munosabatda bo'ladi.
- Mustaqil fikrlay oladigan talabani shakllantirishga yordam beradi.
- Mantiqiy va tanqidiy fikrlashi ham rivojlantiriladi.
- Muammolarni yechish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Kamchiliklari.

- Ko'p vaqt talab etiladi.
- Talabalarni har doim keraklicha nazorat qilish imkoniyati past.
- Juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi roli past bo'ladi.
- „Kuchsiz" talabalar bo'lganligi sababli „kuchli" talabalar ham past baholanadi yoki aksincha.

Noan'anaviy (interaktiv) mashg'ulotlar haqida Pedagogik jarayonni tashkil etish va zamonaviy ta'lim metodikalariga qo'yiladi-

gan talabalarga amal qilishda har bir talabaning o'ziga xos shaxsiy hususiyatlarini hisobga olish zarur. Davr talabiga javob beruvchi samarali pedagogik jarayonni tashkil qilish, o'quv faoliyatini faollashtirish va motivlashtirish uchun zamonaviy va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ehtiyoji tug'ildi.

O'qishga ishtiyoq qiziqish uyg'otish, o'quv jarayoni va faoliyatidan mamnunlik ma'lumki, eng yaxshi natijalarni beradi. Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda talabaning faolligini, qiziqishi va ijodiy mustaqilligini oshirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar ana shunga ko'p jihatdan yo'l ochadi. Axborot ta'minoti kuchli, moddiy - texnika resurslari turli - tuman, ta'lim oluvchilarning o'qish motivatsiyasi yuqori bo'lsa ta'lim jarayonini samarasi va sifati ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu texnologiyalardan biri noan'anaviy, ya'ni interaktiv mashg'ulot usullaridir. Lotinchadan „inter" o'zaro „action" muloqotdir. Interaktiv usullardan foydalanishdan maqsad shuki, o'quv faoliyatini turli xil shaklda, qiziqarli, sermazmun, eng muhim

samarali qilib tashkil qilish, jadallashtirishdir. Bunda talabaning fikrlash faoliyati faollashadi, bilimi ortadi, mustahkamlanadi muloqot faoliyati rivojlanadi, shaxsiyati shakillanadi va o'quv jarayonning mahsuldorligi ortadi.

Ma'lumki, materialni yaxshi o'zlashtirish uchun shunchaki tinglab, yozib o'tirish yetarli emas, balki shu material ustida faol ishlash, o'ylab ko'rish, muhokama qilib chiqish, yordamchi vazifalar bajarish kerak. Hozirgi paytda pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri talabada erkin fikrlash, tashabbuskorlik, mustaqil shug'ullanish, mustaqil o'qish va rivojlanish malakasini hosil qilishdir. Interaktiv usullardan foydalanilganda talabaning barcha psixik jarayonlari - idroki, sezgisi, tasavvuri, diqqati, ongi, xotirasi, aqli, faoliyati va tafakkuri ishga tushib, muammoni yechish uchun mustaqil ravishda izlashga, qidirishga, fikrlash doirasini kengaytirishga va rivojlantirishga yo'naltiriladi. Bunda materialni o'zlashtirishga bo'lgan extiyoji, mayl ortib boradi va natijada ham samarali bo'ladi. Inson 4 xil faoliyatda rivojlanadi: muloqot, o'yin, o'qish va mehnat. Interaktiv usullarning afzalligi

shundaki, unda faoliyatning 4 ta turi ham amalga oshadi. Interaktiv usullar amaliy mashg'ulot vaqtida o'tkazilib, ma'ruza bilimlarini chuqurlashtirish, aniqlashtirish, kengaytirish, mustahkamlash va rivojlantirish uchun mo'ljallangan.

Bu metodlar bo'yicha ishlash uchun 5 kishidan iborat guruhlar tuzilib, oshkora muhokama qilish uchun psixologik keskinlik bartaraf etiladi va ishonchli vaziyat vujudga keltiriladi.

Afzalliklari:

1. Qatnashchilarga o'z g'oyalari va fikrlari bilan ko'proq o'rtoqlashishi, mavzuni birgalikda muhokama qilishi, ularning bir-biridan o'rganishi uchun imkon beradi.
2. Kichik guruhlarda qatnashchilar katta guruhda aytishlari mumkin bo'lgan (yoki ayta olmagan) fikrlardan boshqacha fikrlarni aytishlari mumkin.
3. Diqqat markazini pedagogdan qatnashchilarga ko'chiradi, ya'ni asosiy o'quv faoliyatni ta'lim oluvchilar amalga oshiradi.
4. Qatnashchilarni o'z ishlariga ko'proq mas'uliyat olishga majbur qiladi.

(Chunki bu vaziyatda guruhlararo musobaqa va raqobat muhiti vujudga keladi).

5. Talabada guruhdoshlariga bo'lgan munosabat o'zgaradi. "men va ular" dan "biz" ga o'tishni ta'minlaydi, birlashtiradi, bir-birini tushunishga va empatiyaga o'rgatadi.

Kamchiliklari:

1. Ancha ko'p vaqt va qo'shimcha joy bo'lishini talab qiladi.

2. Qatnashchilarning biortasi boshchilik qilishga o'ta boshlashi, tashabbusini o'z qo'liga olishi va o'z faolligi bilan boshqa talabalar ishtirokiga yo'l bermasligi mumkin.

3. Talabalarni individual hamda ob'ektiv baholashda qiyinchilik tug'iladi. (guruh faoliyati umumiy baholangani sababli, yaxshi tayyorlangan talabalar past baholash yoki yaxshi tayyorgarlik ko'rmagan talabalar yuqori baholanishi mumkin).

Pedagogga maslahatlar.

1. Qatnashchilarni shunday taqsimlangki, toki bir guruhda bir-biri bilan yaqinligi kam kishilar birga bo'lishsin.

2. Topshiriqni aniq va ravshan qilib ta-riflab bering, keyin esa uni hamma tushunib olganiga ishonch hosil qiling.
3. Qatnashchilarning yo'l-yo'riqlarga qay darajada aniq va to'g'ri amal qilib borishayotganini, hamda topshiriqdan chet-ga chiqmayotganini tekshirib boring.

Kichik guruhlarda ishlash qoidalari:
Mumkin va bajarilishi shart.

1. Yangi bilim va ma'lumot egallashga intilish.
2. Tartib-intizomga rioya etish.
3. Guruhda ishonchli psixologik muhit yaratish.
4. Ish maqsadini aniq belgilash.
5. Vaqtdan unumli foydalanish.
6. Ijobiy kayfiyat.
7. G'aroyib va yangicha bo'lsa ham, albat-ta fikr bildirish.
8. Eshita olish mahorati.
9. Savol berish madaniyatiga rioya qilish.
10. O'zgalar fikrini hurmat qilish.
11. Mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik.
12. Faollik, ijodkorlik.
13. Fikrlarning sifat va miqdoriga e'ti-bor berish.
14. Tashkilotchilik
15. Fikrni qisqa, aniq va ravshan ifodalash.

Mumkin emas:

1. Tanqid qilish
2. Fikrni bo'lish
3. Faoliyatsizlik
4. Mas'uliyatsizlik
5. Tashabbussizlik
6. Boshqalarni ishtirokiga yo'l bermaslik.
7. Xulq-atvor va muomla madaniyatiga rioya qilmaslik.
8. Mavzudan chetga chiqish
9. Bildirilgan fikrlarni qaytarish.
10. O'zaro hurmatsizlik.

Ŏqitishning innovatsion texnologiyalari.

Ŏqitishning an'anaviy va noan'anaviy usuli va metodlari farq qilinadi. Ular mohiyatiga ko'ra faol va osoyishta turlariga ajratiladi. Ularning har biri o'z tarixi va shakillanish mexanizimiga ega. Bularning orasida uzoq yillar davomida sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan va yuksak pedagogik samara beradiganlari juda ko'p. Insoniyat o'zini va atrof-muhitni anglab yetishi jarayonida ta'lim va tarbiya uchun asqotadigan hilma-hil texnologiyalarni yaratgan. Ularning aniq son va sifatini hech kim aniq belgilay olmaydi. Bunga hozirgi davrda

mavjud bŏlgan turli davlatlarning ta'lim tizimlarida amal qilinayotgan turfa pedagogik texnologiyalar misol bŏla oladi. Gap ularning qaysi biridan kim qanday samara bilan foydalani-shidadir. Katta samara bermayaligan yoki ŏzini oqlay olmagan texnologi-yalar kun tartibdan tushib qolaveradi va ular insoniyat tsivilizatsiyasining tarixiy „sandiğiga" jamlanib boraveradi.

Har qanday ŏquv kursi, ma'lumki, quyi-dagi komponentlarni ŏzida jamlaydi.

- Kursning davomliligi (muddati);
- Ŏqitishning maqsad va vazifalari;
- Ŏqitishning mazmuni;
- maqsadli guruhning tashkil etilishi;
- Ŏqitish jarayoni;
- Ŏqitish metodikasi;
- Ŏquv quvvati;
- baholash.

Ŏqitishning mazmuni ŏquv bilimining davomiyligi va ŏzlashtirish darajasi orasidagi uzviy bog'lanishning grafigi tarzida ifodalanishi mumkin. Bunda uch toifadagi ŏzlashtirish darajalari farq qilinadi va ular majburiy (past) zaruriy (ŏrtacha) va maqsadga muofiq (eng yuqori) kŏrsatkichlarga ega bŏladilar.

Har qanday pedagogik texnologiya qo'llanilishida didaktikaning asosiy va yordamchi tamoyillari (prinsiplari), albatta amal qiladi:
- Ma'lumdan noma'lumga;
- Oddiydan qiyinga yoki murakkabga;
- Aniqdan mavhumroqqa (abstraktga);
- Kuzatishdan nazariy umumlashmalarga;
- Umumiy yoki odatdagidan xususiyga yoki noodatdagiga va boshqalar.

Ayrim faol pedagogik texnologiyalar tavsifi haqida ma'lumotlar keltirilganda ularning qiyosiy bahosi aydinlashadi.

Ma'ruza: Ma'ruza o'qitishning eng keng tarqalgan shakli bo'lib, pedagogik faoliyatda yetakchi o'rinni egallaydi. U o'qituvchi mehnatining oliy shakli darajasida e'tirof etiladi. Uni bir tomonlama aloqaning ko'rinishi deb ham ataladi. Bunda o'qituvchining faolligi va tinglovchilarning nofaolligi ko'zda tutiladi. Biroq munozara shaklida bayon etiladigan ma'ruza eng faol pedagogik texnologiya elementidir. Munozarali ma'ruzada tinglovchilarning faolligi juda yuqori bo'lishidiga erishish mumkin.

Qurilish o'quv predmetlarini, odatda, ko'proq ma'ruzalar tarzida bayon

etiladi. Chunki bunday kunlar kŏproq nazariy yoki umumlashtiruvchi harakterga tabiatdan ega bŏladilar. Pedagogik terminologiya nuqtai nazardan ularni bilish, aqliy umumlashtirish mashğulotlari deb hisoblash mumkin. Bunda metodikaning barcha boshqa metodlari kamroq samarali bŏlib qoladilar. Ma'ruzani tashkil etish paytida ŏqituvchi ŏquv predmentining eng muhim jihatlarini alohida ta'qidlash evaziga muvaffaqiyat qozonishi mumkin. Ma'ruzada tinglovchilar boshqa samarali metodlar bilan ŏqitilgandagi kabi tayyorgarlik (bilim) oladilar. Faol metodika yordamida ŏqitilgan ma'ruzalar davomida tinglovchilarni faollashtirish evaziga ŏqitish jarayoning teng huquqli ishtirokchilariga aylantirish mumkin. Bunda ŏquv materiali tez va soz ŏzlashtiriladi.

Ma'ruzani faol tadbirga aylantirish uchun uning mavzusi va tuzilmasi orasidagi boğlanishning yechimini topish zarur bŏladi. Ma'ruzalar ŏquv predmentining bosh masalasi kŏnikma hosil qilish emas, balki bilim ŏzlashtirish bŏlganidagina samara beradi.

Ŏqitishning barcha mavjud masalalarni uch guruhga ajratish mumkin.

- Bilimlar;
- Kōnikmalar;
- Kōrsatmalar;

Ōqitish masalalaridan kelib chiqqan holda uning metodi tanlanadi. Agar ta'lim jarayonida tavsiflash, yodga tushirish, sanab ōtish, kategoriyalari bōyicha taqsimlash, ta'riflar keltirish, baholash va tushuntirish kabi didaktik maqsadlar amalga oshirilishi lozim bōlsa, albatta ma'ruza shaklidagi ōquv mashg'ulotlari tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Hayot bilan kundalik turmush bilan, muhim voqealar bilan aloqadorlikda bayon etilgan ma'ruza materiali oson ōzlashtiriladi. Suzishni yoki avtomobilni boshqarishni ma'ruza mashg'uloti yordamida ōrgatib bōlmasligi ravshan. Shu boisdan ōquv va kōnikma hamda malaka egallanishi birinchi ōrinda turadigan faoliyatda ma'ruzaning tutgan ōrni juda kichikdir. Nazariy bilimlar va dunyoqarash ahamiyatiga ega bōlgan ma'lumotlar ma'ruzada yordamida berilishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'ruza davomida ōqituvchining hatti-harakati, imo-ishoralari, nutq komponentlari muhim rol ōynaydi. Ma'ruzachi auditoriya bilan yaxshi aloqa ōrnatilishi

uchun uning dinamik ilgib turishi tavsiya etiladi. Ovoz ohangining o'zgarishi va o'rinli pauzalar ham yordamchi omillarga aylanadi. Bayon mo'tadilligining o'zgarishi, o'rinli kalimalarning qalma-qallanishi, qiziqarli ma'lumotlarning bezak tarzida ishlatilishi katta ahamiyatga ega. Ma'ruzaning to'laqonliligi ko'rgazmali vositalardan qay darajada foydalanilishiga ham bog'liqdir. Rasmlar, jadvallar, plakatlar, diagrammalar, moddiy ob'ektlar va AKTning turli elementlaridan o'rinli foydalanish ma'ruzaning ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi quvvatini oshiradi.

Har qanday ma'ruza tarkiban uch qismdan iborat bo'ladi.

- Kirish;
- Asosiy qism;
- Xulosa.

Ma'ruza turlari pedagogning mahoratiga bog'liq ravishda turfa ko'rinishlar va mazmunga ega bo'ladi. Ma'ruzaning pedagogik samarasi o'qitishning barcha tashkiliy shakllariga qiyoslanganda eng-engdan yuqori bo'ladi

Munozara: Ko'pchilik o'quv predmentlari va ularning mavzulari ta'lim standartlari, o'qitish dasturlari, o'quv rejasi

va ta'lim muassasining o'ziga xosligiga bog'liq ravishda hamda tinglovchilar (bilim oluvchilar) kontingenti bilan aloqadorlikda munozara tarzidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etadi. Birinchidan, tinglovchilar faolligi ta'minlanadi. Ikkinchidan, shubhali vaziyatlarga o'rin qoldirmaydi. Uchinchidan, bilim oluvchilarning istak - hohishlari to'la qondiriladi. Eng muhimi, bunday sharoitda o'quv materiali to'la - to'kis o'zlashtiriladi. Asoslar, xulosalar, hukmlar va tasavvurlar mukammal ko'rinish va mazmunda bo'ladi. Ko'rsatma va ta'qidlarning ishonchliligi yuqori darajada bo'ladi.

Munozara ikki turli bo'ladi:

- Boshqariladigan;
- Erkin munozara.

Boshqariladigan munozarada o'qituvchining ishtiroki sezilarli darajada bo'ladi, lekin bu ishtirok uning o'quv jarayonidagi hokimlik mavqeyidan oshib ketmasligi lozim. Erkin munozara esa bilim beruvchi va oluvchilarning demokratik tarzidagi ishtiroki bilan o'tkaziladi. Bu har ikki turdagi munozarada o'quv haqidagi birinchi o'rinda turadi. Ilmiy bilimlar jonli mushohada, abstrakt

tafakkur orqali nisbiy va absolyut haqiqat yo'li bilan qo'lga kiritilishi hisobga olinsa, bilish jarayonining taraqqiyotini belgilovchi tushuncha, kategoriya, faraz, xulosa, qoida, nazariya, qonun va qonuniyatlar munozara davomida mazmunan burilmasligi muhimdir.

Munozaraning natijasini o'qituvchi oldindan loyihalash lozim. Bunda oraliq jarayonlar ikkinchi pozitsiyada turadi. Yakuniy xulosalar ilmiy bilim nazariyasiga zid kelmasligi o'qituvchining kasbiy salohiyati bilan ta'minlanadi.

Erkin munozarani anarxiyaga aylantirmaslik eng muhim pedagogik vazifadir. Uning o'quv qiymatini boshqariladigan munozaradan kamroq baholab bo'lmaydi. Munozara mashg'ulotlari uchun quyidagi shartlarning bajarilishi muhimdir:

- Reglamentga rioya qilish;
- Boshlashdan oldin chuqur fikriy tahlil qilish;
- Ishtirokchilarning maksimal miqdordagi sonini qo'lga kiritish;
- O'qituvchining o'quvchilarga nisbatan hukmron bo'lmasligi.

Passiv o'quvchilarning ishtirokini ta-

minlash - aksariyat o'qituvchilar uchun amalda bajarib bo'lmaydigan jarayondir. Uni joylashtirish uchun:

- Savollar beriladi;
- Har bir shaxsning uning fikri so'raladi;
- To'g'ri javoblar rag'batlantiriladi;
- Noto'g'ri javoblar va xatolar to'g'irlanadi va to'ldiriladi.

Munozaraning muvaffaqiyatli o'quvchilarning qiziqishi, bilimi, aqlliligi, har fikirligi va jamoadagi sog'lom pedagogik psixologik muhitga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Guruhiy ish. Bu so'nggi yillarda Evropa mamlakatlarida keng ommaviylik topgan o'qitish metodidir. Masalan, Daniyada birorta ham ma'lumot yoki kasb guruhiy ishsiz egallamaydi. Kam sonli 4-6 nafar o'quvchilarning qandaydir muhim o'quv tadbirlarida ishtirok etishi va ularning hamkorlikdagi faoliyati bunday mashg'ulotlarning samarasini belgilaydi. Bajarilishi darajasi va uning sifatini o'qituvchi nazorat qiladi. Guruhlarga berilgan vazifalar bosqichma-bosqich navbatlanishi yoki galma-gallanishi lozim.

Guruhlar bir jinsli (o'g'il bolalar, erkaklar yoki qiz bolalar, ayollar) va ikki jinsli (har ikki jins vakillaridan iborat) bo'lishi mumkin. Ta'lim yo'nalishi va pedagogik maqsad hamda vazifalardan kelib chiqqan holda bunday guruhlar hususiy holat uchun shakillantiriladi.

Guruhiy ish kengroq joy va siljitiladigan o'quv mebellarini talab qiladi. O'qituvchining nazorati barcha guruh uchun barobar bo'lishi lozimligi ham qiyinchilik tug'diradi.

Muammoli topshiriqlar. Nazariya va amaliyotning birligini ta'minlash eng murakkab pedagogik vazifadir. Aniq vaziyat va qo'yilgan masalaning mohiyatidan kelib chiqqan holda muammoli topshiriqlar hamda mashq masalalari yechimida muamoli vaziyat yaratilishi qo'l keladi. Bunda ham kam sonli ishtirokchilardan iborat guruhlar shakillantiriladi. O'quv materiali guruhlarga alohida - alohida bo'lib beriladi. Yakuniy xulosalar va yechimlar topilgach mavzular guruhlar orasida ayirboshlanadi. Yechimlar va fikrlar hilma - hilligi yuzaga kelsa o'qituvchi bosh hakam tarzida so'ngi va hal qiluvchi so'zni aytadi. O'quv materialining o'quvchilar yosh hususiyatlariga

mosligi bunday o'ta muhim omildir.
Muammoli topshiriqlar o'qituvchidan katta va qiyin mehnatni talab qiladi. Shu boisdan, ularning sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan variantlarni topish va qo'llash murakkab jarayondir.
Loyihaviy topshiriqlar. Ular o'quv materialini atroflicha va chuqur o'rganish uchun bu yondashuv katta samara beradi. O'rganish tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish va yakuniy qarorga kelish uchun uzoq muddatli loyihalangan reja zarur. Bu tadbirlarni o'tkazish uchun bazaviy va boshlang'ich tayanch ma'lumotlar talab qilinadi. O'quv predmetini o'zlashtirishning bosqichlarida davriy ravishda tadbiq qilinadi. Bunday topshiriqlar o'quv ijodkorligini oshiradi, mustaqillik sari yetaklaydi.
Loyihalar mavzuning tavsifini beruvchi kirish qismi, mavzuning mustasar asosnomasi, fikrlar va argumentlarga asoslangan ma'lumotlar yig'indisi hamda xulosa yoki yechimdan iborat bo'ladi.
Rolli o'yinlar (ishchanlik yoki ishbilarmonlik o'yinlari). Bunday o'yinlar muammoli topshiriqlarning bir

ko'rinishidir. Taxnolashtirish va obrazli chiqishlar bunday mashg'ulotlarning asosiy belgisidir. Ishbilarmonlik, bilimdonlik, topqirlik, quvnoqlik, hozirjavoblik, ijodkorlik, artistizm, ishchanlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlarni namoyish qilishga keng imkon beradi. O'qituvchi har bir o'quvchining salohiyatiga mos vazifa topshirishi juda muhimdir. Birinchi va ikkinchi darajali ishtirokchilar bo'lmasligini ta'minlash ham talab qilinadi. O'quv mashg'uloti hayotdagi aniq vaziyatga ko'proq yaqinlashadi.

Yorib o'tishlar texnologiyasi va V. Erxard maktabi. Bu texnologiya mutaxassislarni qayta tayyorlash o'qishlaridan iborat bo'lib, uning maqsadi har bir odamda mavjud bo'lgan (lekin kundalik bir xildagi hayot va ish bilan bo'g'ib qo'yilgan) qobiliyatlari va intilishlarini an'anaviy muammolarni yangi muammo sifatida yechish uchun kundalik izlanishlarga aynan uyg'otish hisoblanadi.

Bu kurslar tinglovchining fikrlashi va hulqidagi shaxsiy stereotiplarni bartaraf qilish, o'z imkoniyatlarini va eskirgan muammolarni yangicha yechish yo'llarini ko'ra olishlarini faollashtirish va o'zgartirish

bo'yicha ishlab chiqilgan ko'p sonli mashg'ulotlardan iborat.

Bu kurslarning afzal jihatlari - inson omilini ishga solishga qaratilgan bo'lib, maxsus mablag'lar sarflanishini talab qilmaydi, erishilgan samara so'nib qolmaydi ya'ni olingan samara yangi shakl va mazmunda hamda sharoitlarda muntazam kuchayib borishi bilan takror va takror samara olishni ta'minlaydi. Bu texnologiya alohida yirik yangiliklar yaratishga, hosil bo'lgan favqulodda holatlardan noan'anaviy chiqish yo'llarini izlashga ham qaratilganligi bilan farqlanadi. Bunday yo'nalishdagi 50 dan ortiq kurslar va seminarlar AQShning yirikga yaqin shaharlarida va dunyoning boshqa mamlakatlarining yirikdan ziyod shaharlarida tashkil etilgan va ular muntazam faoliyat ko'rsatmoqdalar. Ushbu kurslarning tinglovchilar soni 60 ming nafar atrofidadir.

Hamkorlik pedagogikasi. Mumtoz pedagogik qarashlar nuqtai nazaridan o'qituvchi pedagogik jarayonning sub'ekti, o'quvchi esa ob'ekti, deb hisoblanadi. Hamkorlik pedagogikasida esa o'quvchi o'z o'quv faoliyatining sub'ekti tarzida qaraladi.

Bunda o'qituvchi va o'quvchi pedagogik jarayonning sub'ektlari sifatida teng-lashib, hamkorlik pedagogikasi jarayoni tashkil bo'ladi. Ular o'zaro hamkor, hamfikr, hamdo'st, hamijodkor, ham-ishtirokchi, hamdard va hamboshqaruvchi tarzida faoliyat yuritadilar.

Hamkorlik munosabatlari o'qituvchilar orasida, ma'muriyat bilan o'quvchilar va o'qituvchilar jamoalari bilan rahbarlar, ota-onalar va keng jamoatchilik orasida ham o'rnatiladi.

Hamkorlik pedagogikasi o'quvchining ta'lim-tarbiya olish motivlarini rivojlantirib borish orqali hamda o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyil-larini amalga tatbiq qilgan holda yuqori sifat va samaradorlikka erishishni ta'minlaydi.

O'quv materialining sxemalar va shartli belgilardan iborat modellari (tayanch sig-nallar konspektlari) asosida ta'limni inten-sivlashtirish texnologiyasi. (V.F. Shatalov, Donetsk shahri, Ukraina) Mazkur metodika anchagina ommalashgan pedagogik yon-dashuv bo'lib, ko'rgazmali sxemalardan iborat tayanch signallari konspekt-laridan tarkib topgan. Ularda o'zlash-tirilishi lozim bo'lgan axborot birliklari

aks ettiriladi, ularning orasidagi turli aloqadorliklar ko'rsatiladi hamda abstrakt (mavhum) materiallarni aydinlashtiruvchi manbalar, misollar va tajribalarni eslatish uchun belgilar, simvollar, komponentlar va maqsadlarning ahamiyatliligi bo'yicha tasnifi turlicha bo'lgan shartli belgilardan foydalinadi.

O'quv materialining sxemalar va shartli belgilardan iborat bo'lgan tayanch signallari konspektlaridan foydalanish asosida turli va o'ziga xos usullar va metodik vositalar ham ishlatiladi.

„Vakolatli ta'lim" texnologiyasi. Ushbu texnologiya 1995-yilda AQShda „Ayollar yetakchiligi" deb nomlangan treninglardan boshlangan bo'lib, ta'limning xalqaro texnologiyasi sifatida 1997-yildan boshlab Ukrainada shakillandi va keyinchalik Ozarbayjon, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Birma va Indoneziyada tegishli treninglar tashkil etildi. Hozirgi paytda dunyoning turli mamlakatlarida bu texnologiyaning shakllanish va joriy etilishi jarayonlari davom etmoqda.

Ta'limning ushbu texnologiyasini ayni kunlarda mutaxassislar quyidagicha ta'riflaydilar: „Vakolatli ta'lim - genderlik adolatli

va zo'ravonliklarsiz munosabatlar asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni bo'lib, u bevosita tajriba orqali ta'lim olish yo'li bilan guruhning o'z-o'zini tashkil qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini beradi."

Vakolatlash pedagogikasi ta'lim dasturlarining boshqa turlari bilan ta'limga nisbatan umumiy yondashuvlarga ega. O'zaro faoliyatda ular bir-birini boyitadi va kuchaytiradi.

Vakolatlash ta'limini joriy etishning quyidagi tartibi eng maqbul hisoblanadi:

- Tasdiqlangan va rasmiylashtirilgan o'quv reja (alohida o'quv fani, integrativ kurslar yoki ularning tarkibiy mavzulari).
- Rasmiylashtirilgan o'quv reja (ta'lim muassasasi tomonidan tashkil etilgan va rasmiy reja bilan bog'langan darsdan tashqari ishlar - ularning sinfdan va maktabdan tashqari turlari farq qilinadi);
- Norasmiy o'quv reja (kutilmagan yoki favqulodda mashg'ulotlar tashkil qilish va ularni ta'lim amaliyotiga alohida reja yordamida joriy etish).

# METODIKA QISMI

Innovatsion texnologiyalarning ta'lim tizimidagi samarali metod va texnologiyalari.

Fikirlar hujumi (aqliy hujum)

„Aqliy hujum" - muammolarni hal qilishda keng qo'llaniladigan anchagina mashhur metoddir. Bu usul katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir hil fikirlash inertsiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikirlarni yengishdir. U qatnashchilarni o'z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga undaydi va berilgan har qanday muammoga ko'p sonli yechimlar topishga yordam beradi (Bu vaziyatda men nima qilishim kerak? Bu to'siqni qanday bartaraf qilishimiz kerak?). Aqliy hujum qadryatlarini tanlash va muqobillarni aniqlashga yordam beradi.

Aqliy hujumni o'tkazish qaidalari, foydalanish usullari quyidagilardan iborat:

1. O'ylash jarayonida hech qanday baholashlarga yo'l qo'yilmaydi. Agar o'ylash jarayonida g'oyalarni baholaydigan bo'lsak, qatnashchilar e'tiborlarini o'z fikir va g'oyalarini himoya qilishga qaratib, ularning yangilash va

va yaxshilari ustida bosh qotirmay qo'yadilar. Baholash qoidadan istisno qilinishi kerak.

2. Hammani o'ta xilma-xil kutilmagan g'oyalar doirasida o'ylashga undash kerak. Haqiqatdan ham aqliy hujumda kutilmagan g'oyalar yuzaga kelmas ekan, ayrim qatnashchilar o'z shaxsiy fikrlarini qayta ko'rib chiqishlari aniq bo'lib qoladi.

3. G'oyalar miqdori rag'batlantiriladi. Miqdor deyarli doimo o'sib, sifatga aylanadi. Imkon izchillikda katta miqdorda g'oyalar paydo bo'lganda, odatda baholash istisno qilinadi.

4. Har bir kishi o'zgalar g'oyasiga asoslanishi va ularni o'zgartirish mumkin. Oldin taklif etilgan g'oyalarni biriktirish yoki o'zgartirishga ko'pincha sabab bo'lganlardan ko'ra yaxshiroq g'oyalarni keltirib chiqaradi.

Samarali „Aqliy hujum" metodlaridan foydalanish quyidagilarni taqozo etadi.

- Qatnashchilar bemalol o'tiradigan qilib joylashtiriladi;
- G'oyalarni yozish uchun doska yoki varaqlar tayyorlab qo'yiladi;
- Muammo aniqlanadi;

- Ish qoidalari belgilanadi;
- G'oyalar hech qanaqasiga baholanmaydi;
- Fikrlarga to'liq erkinlik beriladi;
- Miqdorga intilish;
- O'qish, qayta o'zgartirish va boshqalar;
- G'oyalar haqida so'rash va aytilishi bilan yozib olish;
- Qog'oz varaqlari to'lganda, ularni devorlarga osib qo'yish;
- O'zidan qo'shib yangi g'oyalarni rag'batlantirish
- Ishni davom ettirish va o'zgalar g'oyasiga aralashmaslik.

"Aqliy hujum" metodining mohiyati ham o'ziga xos xususiyatga ega. Bunda maqsad berilgan qisqa vaqt ichida ma'lum muammoning yechimini topishga qaratilgandir. Bu psixotexnik o'yin mashg'ulot jarayonida ijodiy va noandoza fikrlashni uyg'otadi. Bitta yoki bir necha guruh tashkil etiladi va ular oldiga muammo qo'yiladi. Talabalar o'z oldiga qo'yilgan muammoni yechish uchun turli g'oyalarni ilgari suradi. Yechim variantlari qancha ko'p bo'lsa, tanlash jarayoni shunchalik oson bo'ladi. Har bir ilgari surilgan g'oyalarni atroflicha ko'rib, kengaytiriladi va ular orasida eng to'g'ri g'oyani muammoning yechimi sifatida

qabul qilinadi. Muammoni yechish vaqti oldidan belgilab olinadi va unga qat'iy amal qilinadi. „Aqliy hujum"-o'yini qiyin vaziyatlardan qutilish chorasini tez topishga, muammoni ko'ra bilish chegaralarini kengaytirishga, fikrlash bir xilligini yo'qotishga va keng doirada tafakkur yuritishga imkon beradi. Bundan tashqari jamoadagi munosabatlar o'zgaradi, kurashish kayfiyatidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o'tiladi va guruh yanada jipslanadi.

„Tarmoqlar" (Klaster) metodi.

Bu usulning ma'nosi - fikrlarning tarmoqlanishi. „Klaster" texnologiyasi pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchi talabalarni biron-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam beradi. O'quvchi-talabalarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu usul biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchi-talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish hamda o'quvchi-tala-

bolani shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

„Bumerang" texnologiyasi

Bu texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushinib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va harakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli)ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakillarini qamrab oladi. Har bir mashg'ulot davomida talabalarning turli topshiriqlarini bajarishi, navbat bilan o'qituvchi yoki talaba, iqtisodchi yoki tadbirkor rolida bo'lishi, kerakli ballini to'plashga imkoniyat yaratadi.

„Bumerang" texnologiyasi tanqidiy fikirlash va mantiqni shakillantirishga imkoniyat yaratadi hamda g'oya va fikirlarni yozma va og'zaki shakillarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi, ya'ni bo'lajak iqtisodchilardan jamoa bilan ishlash mahorati, muomalalik, xushfe'llik, o'zgalar fikriga

hurmat, rahbarlik sifatlarini shakillantirish, ishga ijodiy yondashish, o'z faoliyatini samarali bo'lishiga qiziqish, o'zini xolis baholash kabilar.

„Veer" (yelpig'ich) texnologiyasi

Bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli mumkin qadar muammo harakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi va ularni har biri alohida muhokama etiladi. „Veer" texnologiyasi tanqidiy, tahliliy aniq va mantiqiy fikirlarni rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari va fikrlarini yozma va og'zaki shaklda bayon etish hamda himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

Ushbu texnologiya mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

- Boshida o'z bilimlarini erkin faollashtirish,
- Mavzuni o'rganish jarayonida uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;
- Yakunlash bosqichida olingan bilimlarni tartibga solish:

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

1. Aspekt (nuqtai nazardan) bilan predment, hodisa va tushuncha tekshiriladi.
2. Afzallik – biror narsa bilan qiyoslanganda gi ustunlik, imtiyoz.

3. Fazilat – ijobiy sifat.
4. Nuqson – nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.
5. Xulosa – muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bŏyicha dalildan natijalarga kelish.

Ta'limdan tashqari bu texnologiya tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

- Jamoa, guruhlarda ishlash mahorati;
- Muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati;
- Murosali qarorlarni topa olish mahorati;
- Ŏzgalar fikriga hurmat;
- Xushmomilalik;
- Faollik
- Ishga ijodiy yondashish;
- Muammoga diqqatni jamlay olish mahorati

Ta'lim samaradorligini oshirishda „Blits - ŏyini" „Chorraha" „Muomala texnologiyasi" kabi ish ŏyinlarida ham foydalanish mumkin. Masalan, „Agar men qayta talaba bŏlsam" „Men shunday qilgan bŏlar edim" kabilar.

„Quruvchi" texnologiyasi

Bu usul interfaol texnologiya bŏlib, talabalarda fikriy bog'liklik, mantiq xotiraning rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrlarini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakillantiradi. Qurilishdagi boralarni pedagogik teminlar bilan to'ldirilishda yordam beradi.

„Quruvchi - rahbar" texnologiyasi

Bu usul talabalarni ijodiy, mustaqil, obrazli fikrlashga o'rgatadi. Ish rejasini tuzish, tanqidiy fikrlash qobilyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, „O'zini - o'zi boshqarish" „Rahbarning tashkiliy qobilyatlari" „Zamonaviy quruvchi shaxsi" deb nomlanuvchi mavzularning yakunida „Quruvchi - rahbar" degan yangi usuldan foydalinadi. Har bir talabaga varaqlar tarqatiladi, ularda „Men - qurilish firmasi direktori" „Men - bosh muhandis" „Men - bosh arxitektor" „Men - bo'lim boshlig'i" „Men - kafedra mudiri" kabi savollar yozilgan bo'ladi. Har bir guruh talabasi o'ziga tushgan faoliyatini ta' riflab, mavzuning ochib beradi, uning ish yuritish va hatto, kiyinishigacha gapirib beradi, uning ish yuritishi va hatto yurish turishini ham gapirishadi. Javob beruvchi talabaga beriladigan savollarning 5-7 tadan oshmasligi shart. oxirida tahlil qilingan obrazning ishi va uning kasbiy sifatlari, mehnat faoliyatining mazmuni, ish

sharoitlari, o'ziga xos harakatlarining manzarasi ifodalanadi.

Bu o'yin-usuli talabalarni ijodiy, mustaqil, obrazli fikrlashga o'rgatadi. Ish rejasini tuzish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Psixotexnik o'yinlar didaktik o'yinlarning o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan turi hisoblanadi. Bu o'yinlar o'quv jarayonida kerak bo'luvchi malaka, xotira, fikrlash, diqqat va tasavvur kabilarni shakllantiruvchi o'qitish usuli hisoblanadi. Psixotexnik o'yinlar ko'proq umumiy malakalarni rivojlantirishga qaratilgandir.

Masalan, o'quv jarayonida bilimlarni tartib-tizimiga solish usullarini mustahkam egallashga yordam beradi. Axborotni tizimga solish jarayonida talabadan diqqat talab etiladi. Bunda talabaga tartibsiz holda axborot tarqatilib, ularni ma'lum belgi asosida guruhlarga ajratish yuklatiladi.

Press-ekspress uslubiyati asosida tashkil etiluvchi o'yinlar talabalarning bilimlarini mustahkamlashga yordam berishi bilan birga ularni hozirjavoblikka o'rgatadi. Buning uchun o'qituvchi tomonidan ma'lum mavzuga bag'ishlangan va qisqa

javob talab etuvchi 10-15 ta savol tuzilishi lozim. Har bir javob uchun 2-3 soniya ajratiladi. Ya'ni talabalardan qisqa vaqt ichida oğzaki javob berish talab etiladi. Bu jarayonida talaba ŏzi bilgan axborotlar ichidan kerakli javobni tez topishni ŏrganadi.

„Skarabey" texnologiyasi.

„Skarabey" interfaol texnologiya bŏlib, u ŏqituvchi - talabalarda fikriy boğliqlikni kuchaytiradi, mantiq va xotirani rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Talabalarda muammoni hal qilishga ŏz fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakillantiradi. Mazkur texnologiya mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, ŏrganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi hamda turli ğoyalarni ifodalash va ular orasidagi boğliqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

„Skarabey" texnologiyasi ŏquvchi - talabalar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatni fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. U talabalar tajribasidan foydalanishni kŏzda tutadi, faol ijodiy

ishlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega. „Skarabey" texnologiyasi alohida ishlarda, kichik guruhlarda va mashg'ulotlar o'tish jarayonida qo'llanilishi mumkin.

„Skarabey" texnologiyasidan o'quv materialning turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi:

- Boshida - o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida („Aqliy hujum");
- Mavzuni o'rganish jarayonida - uning mohiyati, tuzilishi va mavzuni mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash, mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish
- Oxiridan - olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

Ta'limdan tashqari „Skarabey" texnologiyasi tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- O'zgalar fikriga hurmat;
- Jamoa bilan ishlash mahorati;
- Imkoniyatini ko'rsatish ehtiyoji;
- Xush muomalalik;
- Ishga ijodiy yondashish;

- O'z qobiliyatini va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- „Men" ligini ifodalashga imkon beradi;
- O'z faoliyati natijalariga mas'ullik va qiziqish uyg'otadi.

Psixotexnik o'yinlar didaktik o'yinlarni o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lgan turi hisoblanadi. Bu o'yinlar o'quv jarayonida kerak bo'luvchi malaka, xotira, fikrlash, diqqat va tasavvur qobiliyatini shakllantiruvchi o'qitish usuli hisoblanadi. Psixotexnik o'yinlar ko'proq o'quvchi - talabalarni bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar tomonidan yuqoridagi texnologiyalar tavsiya qilingan. Bu faoliyatni turli yo'nalishlar bo'yicha bajariladigan ishlar quyidagi tashkil etadi:
- Oliy maktab o'qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalarga o'qitish;
- Ta'lim muassasalarining fan o'qituvchilarini o'qitish;
- Ta'lim muassasalarining ayrim toifadagi rahbar kadrlarini o'qitish;
- Akademik guruhlar murabbiylarini tarbiyaviy texnologiyalarga o'qitish.

Shu yo'nalishlar bo'yicha zamonaviy

pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish, texnologiya xaritalar tuzish, tarqatma materiallar tayorlash va ulardan amaliyotda foydalanish lozim. Bunday faoliyatda ko'chma seminarlar ham amalga oshiriladi. Ko'chma seminarlarni tayyorlash va o'tkazishda har bir o'quv yurtining o'quv - tarbiya jarayoni xususiyatlaridan kelib chiqqan holda dasturlar yaratiladi.

Bugungi kunda oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari ta'lim sohasida iqtisodiy fanlarni o'qitish, iqtisodiy ta'lim - tarbiya, o'zlashtirilgan iqtisodiy bilimlar darajasini zamonaviy pedagogik texnologiyalarga suyangan holda tashkil qilish, baxolash, iqtisodiy fanlar bo'yicha yangi o'quv dasturlarni yaratish muhim muammolardan biridir. Shu o'rinda aytish kerakki, tarbiya tizimini ishlab chiqishda uzluksizlik, yaxlitlik va bog'liqlikni ta'minlovchi „bosqichli ta'lim" kontseptsiya" tavsiya etiladi. Kontseptsiya negizida maktabgacha ta'lim sohasida o'zlashtirilgan elementlar ta'lim-tarbiyadan toki madaniyatlilik darajasigacha bo'lgan jarayon qamrab olinadi. Bu jarayon tarbiyalanuvchilarga o'z soxasi bo'yicha tayyorgarlik, tafakkurlik, fikrga

egalik, keng qamrovli ong va soxa madaniyatliligi kabi sifatlarni yetkazishni talab qiladi. Ma'lumki bilimlarni nazorat qilish hamda baholashning reyting tizimiga o'tilgunga qadar o'quv jarayoni faqat o'qituvchi (pedagog)ning mahoratiga asoslangan bo'lib, bilim olishni o'qituvchi-talabaning faolligi, ijodiy mehnati asosida tashkil etishga imkon bermas edi, berilayotgan bilimlar miqyosi oshib borayotgan bo'lsa ham o'qituvchi-talabaning bu bilimlarni o'zlashtirish darajasi talab doirasida emas edi. Bu hol ta'lim jarayoniga o'quvchi-talabalarni bir xil uzluksiz bilim olishga undaydigan, ular olgan bilimlarini jahon talablari darajasiga yetkazish imkonini beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ta'lim usullarini joriy qilishni taqozo etadi. Shu maqsadda oliy ta'limdan so'ng, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida ham bilimlarni nazorat qilish va baholashning reyting amaliyotiga o'tadi.

Reyting tizimida bilimlarni ko'p bosqichli nazoratini amalga oshirish va baholashda asosiy usullardan biri to'g'ri tuzilgan testlardan foydalanishdadir. va uslubiy didaktik testologiya nazariyasini tashkil etadi.

Qurilish kasb - hunar kollejlarida maxsus fanlarni innovatsion texnologiyalar asosida o'qitishga doir fanlar bo'yicha ma'lumotlar. „Harorat o'lchash asboblari" mavzusidagi tajriba mashg'ulotini o'tkazishga uslubiy qo'llanma

Ajratilgan soat 4 soat

O'qitishning kutilgan natijalari:

Kognitiv maqsadi (nimani biladi va tushunadi):

- Termometr, qarshilik va harorat kabi tushunchalarni biladi va tushunadi;
- Harorat o'lchash asboblariga berilgan ta'riflarni tahlil qila oladi;
- Harorat o'lchash asboblarini farqlay oladi;
- Harorat o'lchash asboblarining ishlatilishi sohasini biladi;

Psixomotorli maqsadlari (nima qiladi):

- Har bir talaba o'zi biriktirilgan kichik guruhda a'zolar bilan hamkorlikda topshiriqni bajaradilar;
- Berilgan savollarga og'zaki javob beradilar;
- Har bir guruh topshiriqni bajaradilar bahs - munozara yuritadilar, qo'shimchalar qiladilar, xulosa chiqaradilar va baholaydilar.

Affektiv maqsadi (nima his qiladi):

- Harorat o'lchash asboblarining issiqlik texnikasi sohasidagi ahamiyatini tushunib yetadi.

- O'rganiladigan masalaga qiziqish uyg'otadi va uning muhokamasida qatnashadi;
- Tahlilni bajarishda individual va guruh bo'lib ishlashga intilishni namoyon qiladi.

O'qitishning o'quv - tarbiyaviy maqsadi:

- Harorat o'lchash asboblarining asoslarini va ishlash printsiplarini tushuntirish.
- Harorat o'lchash asboblarining ishlatilish sohalari haqida ma'lumot berish;
- Harorat o'lchash asboblarining afzallik va kamchiliklari bilan tanishtirish;
- Haroratni o'lchash asboblarining xavfsizligini asoslash.

Ishlash uchun boshlang'ich materiallar:

- fan bo'yicha darslik yoki o'quv qo'llanma.
- Ma'ruza konspekti;
- Tajriba mashg'uloti daftari

Qo'llaniladigan usul va amallar:

- Jalb qiluvchi savollar;
- Individual ish;
- Kichik guruhlarda ishlash.

Mashg'ulotning uslubiy ta'minoti:


1. Tixomirov A.B. „Teplotexnika M. Energoizdat 1984 god
2. Mashyokin V.V. Texnicheskay termodinamik i teploperedacha. Uchebnoe posobie. M Usshaya shkola 1980 г 469 стр
3. Farberman. L.B, Musina R.G ba Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari

O'quv uslubiy qo'llanma T. O'ZMUMD 2002 yil

4. T. Murnatov. M. A. Xalilov O'.Q. Tolimov „Issiq-lik texnikasi" T. „O'qituvchi" 1998 yil 225 bet

Uslubiy ko'rsatmalar.

Mazkur tajriba mashg'ulotini o'tish mobaynida talabalar kichik guruhlarda ishlash mahoratini namoyon qilishlari va berilgan topshiriqlarni guruhlarda muhokama qilishlari kerak. Buning uchun quyidagi ko'rsatmalarga rioya qilishlari kerak.

1 Talabalar o'tilgan mavzular bo'yicha yetarli nazariy bilimlarga ega bo'lishi zarur.

2 Tajriba topshiriqlari mazmunini aniq to'la bo'lishi lozim.

3 Amaliy topshiriqlarni mazmuni rejalashtirilgan vaqtga mos bo'lishi zarur.

4. Topshiriq bajarish jarayonida talabalar mustaqil va erkin fikrlashlari imkoniyati yaratilishi zarur.

5. Topshiriq bajarilishi yuzasidan kerakli ko'rsatmalar oldindan belgilanishi zarur.

Talabalar guruh bo'lib ishlaganda quyidagi tartib bilan ishlaydilar.



| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| shakillanish | boshlanish | rollarning taqsim | ishning bajarilishi | tarqalish |

Ta'limga uch xil yondashuvni "Zig - zag" strategiyasi yordamida o'zlashtirish texnologiyasi quyidagicha olib boriladi: "Zig - zag" strategiyasini qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

→ Talabalar 3ta guruhga bo'linadi; mavzu mohiyatini yorituvchi matn ham tegishli ravishda 3ta qismga ajratiladi (Tanishtiruv - namoyon (an'anaviy), texnologik izlanuvchan)

→ Har bir guruhga mavzuning muayyan qismi (1-matn, 2-matn, 3-matn va hokazolar) beriladi va uning o'rganish vazifasi topshiriladi

→ Belgilangan vaqt mobaynida guruhlar matn ustida ishlaydilar.

→ Vaqtni tejash uchun guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi va ular o'rganiladi matnga oid asosiy ma'lumotlarni guruhdoshlariga so'zlab beradilar;

→ Liderlarning fikri guruh a'zolari tomonidan to'ldirilishi mumkin;

→ Barcha guruhlar o'zlariga berilgan matnni puxta o'zlashtirganlaridan so'ng matnlar guruhlararo almashtiriladi;

→ Bu bosqichda ham yuqoridagi faoliyat takrorlanadi:

Shu tarzda mavzu mohiyatini yorituvchi yaxlit matn o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi.

1- guruh topshiriq

1 Kengayish termometrlarining ishlash printsip-
larini va uning afzallik va kamchiliklarini
taqqoslang;

2 Kengayish termometrlari sxemasini keltiring.

2- guruh topshiriq

1 Manometrik termometrlarining ishlash printsip-
larini va uning afzallik va kamchiliklari-
ni taqqoslang

2 Manometrik termometrlari sxemasini keltiring

3- guruh topshiriq

1 Qarshilik termometrlarining ishlash printsip-
larini va uning afzallik va kamchiliklarini
taqqoslang

2. Qarshilik termometrlari sxemasini keltiring

Dars yakunida talabalar faolligi inobatga olinib,
olingan natijalar baholanadi.

Talabalar o'zlashtirish darajasini tekshirish
nazorat savollari.

1 Harorat o'lchash asboblarining qanday
turlari mavjud

2. Harorat o'lchash asboblaridan xalq xo'jaligini
qaysi sohalarida keng foydalinadi.

3 Kengayish termometrlarining ishlash printsip-
larini tushuntiring

4. Qarshilik termometrlarining ishlatilish sohasi
haqida tushunchalar bering

5 Manometrik termometrlardan qanday foyda-

larish mumkin.

Gidravlika fanidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari uchun texnologik xaritalar tuzish bo'yicha namunalar.

Guruh: 20-KTMKQ-14

O'qituvchi: O'rinboyeva Matluba Sotiboldi qizi

Mavzu: Gidravlika fanidan. Gidrodinamika va asosiy tushunchalar" mavzusiga oid texnologik xarita

Gidrodinamika va asosiy tushunchalar mavzusi bo'yicha texnologik xaritalarning umumiy ko'rinishi

| | |
|---|---|
| Mavzu: | Gidrodinamika va asosiy tushunchalar. |
| Maqsad Vazifalar | Maqsad: Talabalarga gidravlika fanining gidrodinamika bo'limi, qonuniyatlari va foydalanish sohalarini tushuntirish. Vazifalar: Talabalarda gidrodinamikaning asosiy masalasi, suyuqlik harakati davomidagi bosim tezlik parametrlarining o'zgarishi orqali hosil bo'ladigan holatlar bo'yicha bo'lgan qiziqishlari asosidagi bilim va ko'nikmalarni shakllant |
| O'quv jarayonining mazmuni | Gidrodinamika haqida tushuncha. Gidrodinamika va uning masalalari. Gidrodinamik bosim va uning xislatlari. Suyuqlikni harakat vaqtida gidrodinamik qonuniyatlarning qo'llanilishi |
| O'quv jarayonini amalga oshirish | Metod: Og'zaki bayon qilish, yozma 3x4 texnologiyasi<br>Shakl: Amaliy mashg'ulot, suhbat, munozara, yakka |

| | | |
|---|---|---|
| | tartibda va kichik guruhlarda ishlash. | |
| | Vosita: A-3, A-4 formatdagi qog'oz varaqlari, rangli flomasterlarda yoki rangli qalamlar. | |
| | Usul: Yozma materiallar va chizmalar | |
| | Nazorat: Og'zaki nazorat, kuzatish, og'zaki savol javoblar | |
| | Baholash: Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash | |
| Kutilgan natijalar | O'qituvchi: Gidrodinamika va uning asosiy masalalari mavzusini qisqa vaqt ichida talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. Talabalar faolligini oshirish ularda gidrodinamik bo'limga nisbatan qiziqishlari ortadi. | Talaba: Gidrodinamika haqida erkin mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlash hamda izlanishga erishadi. Gidrodinamik va uning qonuniyatlari bo'yicha fikrlarini jamlab, ulardan amaliy va nazariy tushunchalar hosil qilishni, jamoaga o'z fikrini o'tkazishni va maqsadni o'rgatadi |
| Kelgusi rejalar (Tahlil, o'zgarishlar) | O'qituvchi: Yangi interaktiv metodni mukammal o'zlashtirish kelgusi darsda tadbiq etish va o'z pedagogik mahorati ustida gidrodinamika bo'limini hayotiy misollar bilan tushuntirish. | Talaba: Mustaqil va guruhda ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. Gidrodinamika haqida qo'shimcha ma'lumotlar ustida ishlab, ularni o'rganib chiqadi. O'z fikri va guruh fikrlarini tahlil qilib aniq bir yechimga kelish maqsadini hosil qiladi. |

Guruh: 20-KTMKQ-14

O'qituvchi: O'rinboyeva Matluba sotiboldi qizi

Mavzu: Gidravlika fanidan „Bosim o'lchash asboblari" mavzusiga doir texnologik xarita

| Mavzu | Bosim o'lchash asboblari |
|---|---|
| Maqsad Vazifalar | Maqsad: Talabalarga bosim o'lchash asboblarining turlari, ishlatilish tartibi va sohalarini tushuntirish. Vazifalar: Talabalarda bosim o'lchash asboblarining turlari, ishlatilishi va uning sohalarga bo'lgan qizi-qishlari arosidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish |
| O'quv jarayo-nining mazmuni | Bosimning turlari va ularni o'lchash jihozlari haqida tushuncha. Bosim o'lchash asboblaridan foydalanish mumkin bo'lgan holatlar. Bosim o'lchash asboblarining turlari va ularning ishlatilishi. Bosim o'lchash asboblarining qo'llanilish sohalari |
| O'quv jarayoni amalga oshirish | Metod: Og'zaki bayon qilish, yozma bumerang texnologiyasi |
| | Shakl: Amaliy mashg'ulot, suhbat munozara, yakka tartibda va kichik guruhlarda ishlash. |
| | Vosita: A-3, A-4 formatdagi qog'oz varaqlari, rangli flamasterlar yoki rangli qalamlar. |
| | Usul: Yozma materiallar va chizmalar |
| | Nazorat: Og'zaki nazorat kuzatuv, og'zaki savol-javob |
| | Baholash: Rag'batlantirish 5 ball tizim asosida baholash |

| | | |
|---|---|---|
| | Öqituvchi: Bosim ölchash asboblari mavzusini qisqa vaqt ichida talabalar tomonidan özlashtirishliga erishadi. Talabalar faolligini oshirib ularda bosim ölchash asboblariga nisbatan qiziqishlarini orttiradi. | Talaba: Bosim ölchash asboblari haqida erkin mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bölib ishlash hamda izlanishga erishadi. Bosim ölchash asboblari böyicha fikrlarni jamlab, ulardan nazariy va amaliy tushunchalar hosil qilishni, jamoaga öz fikrini ötkazishni va ma'qullashni örganadi. |
| Kelgusi rejalar (tahlil özgarishlar) | Öqituvchi: Yangi interaktiv metodni mukammal özlashtirish kelgusi darsda tadbiq etish va shakillantirish. Öz pedagogik mahoratida ustida ishlash. Bosim ölchash asboblarining hayotiy misollar bilan tushuntirish. | Talaba: Mustaqil va guruhda ishlashni örganadi. Öz fikrini ravon bayon qila oladi. Bosim ölchash asboblari haqida qöshimcha ma'lumotlar ustida ishlab, ularni örganib chiqadi. Öz fikri va guruh fikrini tahlil qilib, aniq bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi. |

„Muhandislik tarmoqlari jihozlari" fanidan o'qitish bo'yicha 2 soatlik dars ishlanmasi.

1 Mavzu: „Muhandislik tarmoqlari jihozlari" fani haqida ma'lumotlar. Fanni o'rganishdan maqsad bino va inshootlarning injenerlik jihozlari bilan ta'minlash va ularni ishlatish.

Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

| Vaqti 2 soat | Talabalar soni 45-50 nafar |
|---|---|
| O'quv mashg'ulotining shakli | Kirish, vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1. Talabalarni mavzuga oid bilimlarini faollashtirish Muammoli savol va vaziyatlar tahlili.<br>2. „Muhandislik tarmoqlari jihozlari" fani haqida ma'lumotlar<br>3 Fanni o'rganishdan maqsad bino va inshootlarning injenerlik jihozlari bilan ta'minlash va ularni ishlatish.<br>4. Ma'ruzani xulosalash. |

O'quv mashg'ulotining maqsadi: „Bino va inshootlarning injenerlik jihozlari" fani kursi bo'yicha fanning predmeti va bilish usullari, rivojlanish tarixi boshqa fanlar bilan aloqasi to'g'risida bilimlarini hamda to'liq tasavvurini shakllantirish.

| Pedagogik vazifalar: | O'quv faoliyatining natijalari: |
| --- | --- |
| - Bino va inshootlarning injenerlik jihozlari fani tushunchasi bilan hamda ularning namoyondalari bilan tanishtirish<br>- Bino va inshootlarning injenerlik jihozlari fanining bosh masalasini tavsiflash<br>- Ilmiy bilish usullarini izohlash va tasavvur hosil qilish. | Talaba<br>- Bino va inshootlarning injenerlik jihozlari fanining mazmun va mohiyatini izohlaydi.<br>- Gidromashinalar tushunchalariga ta'rif beradi;<br>- Bino va inshootlarning injenerlik jihozlariga aloqador fikrlarni ifodalaydi va ularning asoschilarini aytib beradi;<br>- Bino va inshootlarning injenerlik jihozlarining bosh masalasiga tavsif beradi;<br>- Bino va inshootlarning injenerlik jihozlariga aloqador ilmiy ishlanga misollar keltiriladi<br>- Ilmiy bilishning asosiy usullarini sanab beradi va izohlaydi.<br>- „Bino va inshootlarning injenerlik jihozlari" fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasini va uni fanlar ichida tutgan o'rnini tavsiflaydi. |

| | |
|---|---|
| | |
| O'qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish, klaster, «ha-yo'q» texnikasi |
| O'qitish vositalari | Ma'ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar |
| O'qitish shakli | Jamoa kompyuter bilan jihozlangan audito… |
| O'qitish shart-sharoiti | proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya |

## Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

| Bosqichlar vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | talaba |
| 1-bosqich<br>Kirish<br>(10 minut) | 1.1. Mavzuni, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi. | 1.1 Eshitadi yozib oladi |
| 2-bosqich<br>Asosiy<br>(60 min) | 2.1 Talabalarni e'tiborlarini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkaziladi.<br>- Bino va inshootlarni injenerlik jihozlariga doir qanday atamalarni bilasiz?<br>- Bino va inshootlarni injenerlik jihozlari fanining yo'nalishingizda o'qitishdan maqsad nima deb o'ylaysiz?<br>- Bino va inshootlarning injenerlik jihozlari fani qaysi fanlar bilan uning bog'liq?<br>2.2 O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. | 2.1 Eshitadi navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi<br>O'ylaydi javob beradi<br>Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi<br>2.2 Sxema va jadvallar mazmunini mush… |

| | | |
|---|---|---|
| | Bino va inshootlarning injenerlik jihozlari, gidropnevmoyuritmalar va gidromashinalar fanining doimiy va asosiy muammosi tushunchalarini aniqlaydi | savol berib asosiy joylarini yozib oladi. |
| | 2.3 Bino va inshootlarning injenerlik jihozlari fani haqidagi fikrlarini paydo bo'lishini va ularni namoyondalari to'g'risida prezentatsiyani namoyish qiladi<br>a) Bino va inshootlarning injenerlik jihozlari fani nimani o'rgatadi deb o'ylaysiz<br>b) U qanday vazifani bajaradi.<br>v) Boshqa fanlar bilan qanday bog'liqligi bor va ahamiyati nimada?<br>kabi savollardan 3 savolini yoritishda foydalaniladi.<br>2.4 Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini so'raydi. | 2.3 Eslab qoladi yozadi<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. Ta'rifni yozib oladi. |
| 3-bosqich Yakuniy (10 min) | 3.1 Mavzuga yakun yasayapti va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi.<br>Faol ishtirok etgan talabalar rag'batlantiriladi.<br>Mustaqil ish uchun vazifa: „Bino va inshootlarning injenerlik jihozlari" o'ziga klaster tuzishni vazifa qilib beradi baholaydi. | 3.1 Eshitadi aniqlashtiradi Topshiriqni yozib oladi. |

Visual materiallar.

Bino va inshootlarning injenerlik jihozlari fanining maqsad va vazifalari deganda qanday tushunchalarga egasiz.

Muhandislik tarmoqlari va jihozlari - muhandislik tizimlari va ularning tarkibidagi mavjud jihozlar, bu jihozlar va tizimlarning ishlatilishi, sinalishi va foydalanishi bilan shug'ullanuvchi fan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan ko'rsatilgan ustuvor yo'nalishlardagi suv ta'minoti, suvoqava va gaz ta'minoti tarmoqlarini ishga tushirish va va ularni hayotga talabiga asosan me'yorda ishlashni ta'minlash muhandislik tarmoqlari va jihozlariga hamda bu sohada yetishib chiqadigan mutahassislardan yuqori malakaga va chuqur bilimga ega bo'lishi taqozo etiladi.

Mamlakatimizda suv ta'minoti, suvoqova, issiqlik va gaz ta'minoti quvurlari miqdori va ularning o'tkazish qobilyatini yildan yilga ortib borishi soxa mutaxasislar bu fan oldida murakab masalani hal qilish ehtiyojini

Muhandislik tarmoqlari va jihozlari sohasi hodimlari oldiga qo'yilgan topshiriqlarni bajarish uchun quyidagilarni bilish zarur.

- Shu sohadagi uskuna jihozlarini tuzilishi, ishlash printsipi, bir-biri bilan aloqasi va bir-biriga ta'siri hamda ularni boshqarish printsiplarini;
- Uskuna va jihozlarni ishlatishda texnika xavfsizligi va yong'in xavfsizligi qoidalari.
- Barcha uskuna va jihozlarni ishlatish va ta'minlash qoidalarini, me'yoriy kapital va joriy ta'mir orasi mudati
- Uskuna va qurilmada sodir bo'layotgan gidravlik va gidrodinamik jarayonlar qonun qoidalarini va bu jarayonga ta'sir qilish yo'llarini.
- Suv va gazni tozalash, saqlash va istemolchiga uzatishdagi texnologik jarayonlarni ta'minlashni:
- Barcha texnik va texnologik jarayonlarni amalga oshirishda automatik boshqarish printsiplarini ishlarni bajarishda ilg'or uslublarini mukammal bilish va bu qoida va tartiblarga amal qilish lozim:

Bino va inshootlarning injenerlik jihozlari texnik hizmat ko'rsatish tartiblari.

Texnik tadbirlar texnik xizmat ko'rsatish sanitariya texnikasi sistemalarining barcha elementlarini tuzatish va talab qilingan ish rejimiga rioya qilishni nazorada tutadi.
Texnik xizmat ko'rsatish: kundalik texnik xizmat ko'rsatish va xaftalik texnik xizmat ko'rsatishga bo'linadi.

Ekspluatatsion xizmat ma'lum ish turlarini bajarishga mo'ljallangan yirik ixtisoslashtirilgan pudrat tashkilotlaridan iborat bo'lib, ularga binolardan foydalanish direktsiyasi sanitariya texnikasi sistemalarini tuzatish va ularga xizmat ko'rsatish ishlariga buyurtma berish. Dispetcherlik xizmati va jihozlari sistemalarining optimal ish rejimiga qat'iy amal qilish hisobiga suv issiqlik va boshqa ishlab chiqarishga aloqasi bo'lmagan harajatlar isrofini.

Muhandislik tizimlariga qo'yiladigan talablar.

Muhandislik tizimlarini mustahkamlik nazariyasining o'rganish yaqinda boshlandi. Mustahkamlik nazariyasi fanida quyidagi vazifalarni o'rganadi.

→ Mustahkamlikni xarakteristikasi va kriteriyalari;

→ Jihozlarni mustahkamlikka tekshirish taqdimotlarini ishlab chiqish;

→ ob'ektlardan foydalanishni ilmiy tadqiqotlarini ishlab chiqish.

Muhandislik tizimlarini ishonchliligini oshirish yo'llari quyidagilar.

- egizak sistemalar va jihozlar;
- sistemalarni soddalashtirish;
- ishonchli jihozlarni tanlash;
- ish rejimini tanlash;
- eng asosiy ko'rsatkichlarni nazorat qilish.

"Bino va inshootlarning injenerlik jihozlari" fanining mutaxassislik fanlari bilan o'zaro bog'liqligi

- Muhandislik tarmoqlari va jihozlari fani
- Issiqlik ta'minoti va isitish ventilatsiya
- Suv ta'minoti va kanalizatsiya asoslari
- Gaz ta'minoti asoslari
- Gaz neft omborlari va gaz neft quvurlari
- Havoni sovutish
- Nasoslar va havo uzatish stantsiyalari

Ma'ruza mashg'uloti bo'yicha bilimlarni mustahkamlash uchun vazifa (Ha yo'q texnikasi).

1 Bino va inshootlarning injenerlik jihozlari fanini mutaxassislik fanlari tarkibiga kiritilishi maqsadga muvofiqmi?

2 Bino va inshootlari injenerlik jihozlari fanining boshqa mutaxassislik fanlari bilan qanday bog'liqligi bor.?

3. Bino va inshootlarning injenerlik jihozlari va tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish qanday amalga oshiriladi?

4. Bino va inshootlarning injenerlik jihozlari fanining xalq xo'jaligidagi ahamiyati qanday?

5. Muhandislik tizimlari ishonchliligini oshirish uchun nimalarga e'tibor berish zarur.

Ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha xulosa.

O'zbekiston Respublikasini birinchi Prezidenti I. Karimov rahbarligi ostida O'zbekiston hukumati tomonidan mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lidagi islohatlarini bosqichma-bosqich amalga oshirishda axolini ichimlik suv va tabiy gaz bilan ta'minlash ustuvor yo'nalishlardan biri qilib belgilandi.

Axolini tabiiy gaz va ichimlik suv bilan ta'minlash yuzasidan qabul qilingan Davlat dasturida

dasturida. Yaqin besh yetti yil ichida mamlakatni barcha axoli punktlari sifatlik ichimlik suv bilan ta'minlanishi zarur 2005-yilga qadar qishloq axolisini ichimlik suv bilan ta'minlash 82% ga yetkazish kerak. Buning uchun 1999-2005 yillarda qishloq joylarida 30 ming kilometrga yaqin gaz tarmoqlarini 18 ming kilometr suv quvuri tarmoqlarini ishga tushirish darkor" deb ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I. A. Karimov-ni 14 aprel 1999 yil birinchi chaqiriq O'zbe-kiston Respublikasini Oliy Majlisining 14-ses

siyosidagi ma'ruzasida ta'qidlab o'tilganidek „XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasida ustuvor yo'nalishlarni yana biri kadrlar masalasidir" Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni yechish zarurati tug'ilmasin, gap oxir oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi. Oliy Majlis IX sessiyasida qabul qilingan „kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturni amalga oshirish hayotga tadbiq etish, hech bir mubolag'asiz, strategik maqsadlarimiz, farovon, kudratli, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishimizning asosi bo'lmog'i zarur".

## Muhandislik tizimlarini texnik va xo'jalik xarakteristikalari.

Ekspluatatsion tashkilotlarning asosiy vazifasi injenerlik sistemalarining barcha zvenolarini avariyasiz va ishonchli ishlashi, issiqlik, gaz, suvni uzluksiz yetkazib berish hamda ularni oqilona foydalanishni ta'minlashdan iborat.

Sanitariya texnikasi sistemalarining ishonchli ishlashi ekspuluatatsion ishlarni planlashtirish orqali ta'minlanib, u tashkiliy va texnik talablarni bajarishdan iborat.

Tashkiliy tadbirlar texnik xizmat ko'rsatish

sanitariya texnikasi sistemalarining barcha elementlarini tuzatish va talab qilingan ish rejimiga rioya qilishni nazarda tutadi.

Tashkiliy tadbirlar normativ xujjatlar(muassasa standartlari, tuzatish qoidalari, texnik foydalanish qoidalari va boshqalar)ni ishlab chiqarishdan iborat.

Texnik xizmat ko'rsatish kundalik texnik xizmat ko'rsatish va xaftalik texnik xizmat ko'rsatishga bo'linadi.

Ekspluatatsion xizmat ma'lum ish turlarini bajarishga mo'ljallangan yirik ixtisoslashtirilgan pudrat tashkilotlaridan iborat bo'lib, ularga binolardan foydalanish direktsiyasi sanitariya texnikasi sistemalarini tuzatish va ularga xizmat ko'rsatish ishlariga buyurtma beradi. Ekspluatatsion xizmatlarni tashkil qilishning boshqacha shakli bu binolardan foydalanish bo'yicha kompleks ishlarni bajaruvchi yiriklashtirilgan uy-joy ekspluatatsion tashkilotlar.

Muhandislik kommunikatsiyasi tizimlarida qisqa va uzoq quvurlarning gidravlik hisobi mavzusini o'qitish texnologiyasi.

Mavzu: Muhandislik kommunikatsiyalari tizimlarida qisqa va uzun quvurlari gidravlik hisobi

Ma'ruza mashg'ulotining texnologiyasi.

| | |
|---|---|
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 30-80 nafar |
| Ŏquv mashg'ulotining shakli: | Muammoli: ma'ruza |
| Ŏquv mashg'ulotining rejasi. | 1. Ŏtgan mavzu tahlili<br>2. Qisqa va uzun quvurlar gidravlik hisobi<br>3 quvurlarni parallel va ketma ket ulash<br>4. Murakkab quvurlar<br>5. Gidravlik zarba<br>6. Gidravlik zarbani oldini olish va uni ishlatish usullari<br>7. Suyuqlikning tirqishlar va nasadkalar orqali oqishi<br>Suyuqlik oqimchasi<br>8 Oqimning aktiv va reaktiv ta'siri<br>9 Ma'ruzaga yakun yasash. |

Ŏquv mashg'ulotining maqsadi: Quvurlar tŏg'risida yaxlit tasavvur hosil qilish va gidravlik zarba hodisasi tŏg'risidagi bilimlarni chuqurlashtirish

| | |
|---|---|
| Pedagogik vazifalar.<br>-„Qisqa quvur" „uzun quvur" tushunchalariga ta'rif berish<br>- Quvurlarni parallel va ketma-ket ulash tushunchalari mohiyatini ochib berish.<br>- murakkab quvurlar | Ŏquv faoliyatining natijalari:<br>-Qisqa „uzun" quvur tushunchalari ŏrtasidagi farqni aytadilar".<br>- Quvurlarni ulash va uning turlarini aytib beradilar<br>-Qisqa, uzun va murakkab quvurlar tushunchalariga |

| | |
|---|---|
| mohiyati va vazifalari mazmuni yoritish; - Gidravlik zarba tushunchasi bilan tanishtirish - Suyuqliklarni tirqish va nasadkalardan oqishini ta'riflab berish. | ta'rif bera oladilar; - Gidravlik zarba hodisasi hayotga qanday hollarda sodir bo'lishini misollar bilan sanaydilar. - Suyuqlikni tirqish va nasadkalardan oqib chiqishini izohlab beradilar |
| O'qitish usubi va texnikasi | Muammoli, fikrlar hujumi |
| O'qitish shakli | Frontal |
| O'qitish vositalari | Ma'ruza matni, proektor vizual, materiallar doska bor |
| O'qitish shart-sharoiti | Jihozlangan auditoriya |

## Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

| Bosqichlar vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | talaba |
| 1 bosqich Kirish 5-min | 1.1 Mavzu, maqsad va ma'ruza rejasini ma'lum qiladi. O'quv mashg'ulotining natijalari bilan tanishtiradi. Mazkur mashg'ulot muammoli ma'ruza tarzida o'tishini e'lon qiladi.<br>2.1 Muammoni hal qilishdagi izlanuvchanlik faoliyatida talabalar | 1.1 Eshitadilar yozib oladilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | bilimini yetarliligini aniqlash uchun avvalgi mavzu bo'yicha tezkor savol-javob o'tkazadilar. | |
| | 2.2 Nima deb o'ylaysiz, nima uchun quvurlarni gidravlik hisoblash zarur. Muammoni birgalikda hal qilishni taklif etadi. | savollarga javob beradilar |
| | 2.3 Talabalar faolligini oshirish maqsadida „aqliy hujum" dan foydalanishni taklif etadi. Har qanday fikir qo'llab-quvvatlanadi | 2.3 muammolarni yozib oladilar |
| 2-bosqich Asosiy 65 min | 2.4 Muammoning muhokamasini tashkil etadi. Buning uchun hal qilinadigan kichik muammolar aniqlanadi<br>1) O'qituvchi maslahatchi arbitr vazifasini o'taydi<br>2) Qo'shimcha savollar beradi.<br>3) Javoblarga izoh beradi, xulosa qiladi o'zaro baholashni tashkil etadi.<br>4) Fikrlar ichidan eng maqbulini tanlaydi, sharhlaydi, talabani rag'batlantiradi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni tekshirish maqsadida doskaga savol yozadi va javob berishni so'raydi. Ayniqsa „fikrlar hujumi" da ishtirok etgan talabalardan ko'proq so'rashga harakat qiladi. | 2.3 O'z yechimlarini taklif etadilar ko'rgazmalardan misollardan foydalanib javob beradilar. Javob beradilar. |
| 3-bosqich Yakuniy 10 min | 1.1 O'quv faoliyatiga yakun yasaydi, erishilgan natijalarni umumlashtiradi eng yaxshi fikrlarni baholaydi | Eshitadilar vazifa oladilar |

O'quv materiallari




Quvurlarning ulanishiga ko'ra turlari.

Quvurlarni gidravlik hisoblash.

Quvurlarni geometrik o'lchamlari (diametri, uzunligini) ma'lum sarfga moslab hisoblash yoki berilgan bosimda o'lchamlari berilgan quvurlarni sarflarini hisoblash quvurlarni gidravlik hisoblash deyiladi. Gidravlik hisoblash vaqtida quvurlarning uzunligi yoki hisoblashning gidravlik shartlariga qarab 2 turga bo'linadi uzun va qisqa. Uncha uzun bo'lmagan va mahalliy qarshiliklari sezilarli bo'lib, umumiy qarshilikning 5-10% ni tashkil etadigan quvurlar qisqa quvurlar deyiladi. Masalan: nasoslarning so'rish quvuri, benzobakdan karburatorga benzin o'tkazuvchi quvuri, avtotraktor va boshqa qurilma dvigatellarining moy o'tkazuvchi quvurlari, gidrouzatmalardagi tutashtiruvchi quvurlari va boshqalar.

Ancha uzoq masofaga cho'zilganda gidravlik

qarshiliklar majmuida asosiy qismini ishqalanish qarshiligi tashkil qilgan quvurlar uzun quvurlar deyiladi. Bunday quvurlarda mahalliy qarshiliklar alohida hisoblanmaydi va ishqalanish qarshiligining 5-10% ga teng deb qabul qilinadi. Masalan suv tarmog'i quvurlari, neft va gazlarni tarqatuvchi quvurlar va boshqalar.

Quvurlar ulash sxemasiga ko'ra 2 turga bo'linadi

(a)




sodda quvurlar a v a b rasmlar

Sodda quvurlarda hech qanday tarmoqqa ega bo'lmagan quvurdir

(b)




Murakkab quvurlar v va g rasmlar

Murakkab quvurlar bir necha tarmoqqa ega bo'lgan quvurlardir

(v)




Bundan tashqari quvurlar tupik va yopiq quvurlarga ajratiladi. Suyuqlikni biror yerga ikki va undan ortiq yo'nalish bo'yicha berish mumkin bo'lgan quvurlar yopiq quvurlar deyiladi. Bir yo'nalishda suyuqlik oqadigan quvurlar tupik quvurlar deyiladi.

(g)




Quvurlar ulash sxemasiga ko'ra turlari

sodda ⟷ Murakkab

Yopiq quvurlar ⟷ Tupik quvurlar

## Quvurlarni ulash.

- Sodda holatda
  - Ketma-ket ulash
- Murakkab holatda
  - Parallel ulash
  - Halqasimon ulash.

### Sifon quvurlari.




Bir qismi suyuqlik bilan ta'minlovchi idishdan yuqorida joylashgan sodda truba sifon truba deb ataladi. Sifonni soddalashtirish ikkita (ta'minlovchi va qabul qiluvchi) idishlarni tutashtiruvchi U ko'rinishdagi truba sifatida tasvirlash mumkin. Bu holda uning egilgan qismi idishlardagi suyuqlik sathidan H balandlikda bo'lib undagi suyuqlik idishdagi suyuqliklar sathlarini farqi H hisobiga oqib o'tadi. Shuni aytish kerakki suyuqlik sifonda avval birinchi idish sathidan H balandlikka ko'tarilib so'ngra ikkinchi idishga tushadi. Bunday trubalarni o'ziga xos xususiyatlari shundaki unda bosim ko'tariluvchi qismda ham, pastga tushuvchi qismda ham atmosfera bosimidan pastdir. Sifon trubalardan asosan neft mahsulotlarini sisternalardan quyib olish suv sig'imlarini bo'shatish do'nglik yerlarda vodoprovod o'tkazish va hokazolar.

## Quvurlarni ketma-ket ulash.




Ketma-ket va parallel ulangan quvurlarni hisoblash sodda quvurlarni hisoblashga qaraganda murakkab bo'lib, u qaysi tartibda ulanganiga bog'liq. Ketma-ket ulash bir necha har xil diametrli quvurlardan tashkil topgan truboprovodni ko'ramiz. Bu quvurlarning har birida sarflar teng bo'ladi. Bosim va tezliklar quvur diametriga asosan har xil bo'ladi.

## Quvurlarni parolel ulash.




Bir nechta sodda quvurlardan tashkil topgan murakkab quvurlar paralel ulangan quvurlar hisoblanadi. Asosiy manbalardan kelayotgan bosim, tezlik va sarf quvur diametriga qarab har biriga har xil miqdorlarda taqsimlanadi.

## Murakkab quvurlar.

Murakkab truboprovodlar quvurlar xilma-xil usullarda tutashtirilgan bo'lib, ular

ketma - ket, paralel ulangan va tarmoqlangan ajratilgan bo'laklardan tashkil topgan bo'ladi

Muammolar.

Nima deb o'ylaysiz, nima uchun quvurlarni gidravlik hisoblash zarur?

Kichik muammolar.

1. "Uzun quvur" tushunchasining "Qisqa quvur" tushunchasidan farqi nima

2. Sodda quvurlar va Murakkab quvurlar" tushunchalari

3. Nima uchun suyuqlik uzunlik bo'yicha harakatlanganda bosim ko'p yo'qoladi.

2 Muammo: Gidravlik zarba qanday holatda sodir bo'ladi

1 Qanday sharoitlarda gidravlik zarbani kelib chiqishini kuzatish mumkin.

2. Gidravlik zarbani salbiy va ijobiy tomonlari mavjudmi.

3 Muammo: Suyuqlikni tirqish va nasadkalardan oqishi qanday ahamiyatga ega.

1 Kichik teshik tushunchasi o'zi nima

2. Teshikni katta yoki kichik bo'lishi qanday holatlarni yuzaga keltiradi.

3. Hajmlarga o'rnatilgan naychalarning suyuqlik harakatiga ta'siri bormi.?

# ATROF-MUHIT MUHOFAZASI QISMI

Maxsus fanlarni o'qitishda ekologik tarbiyaning ahamiyati.

Kasb-hunar kolleji talabalariga maxsus fanlarni o'qitishda ekologik tarbiya berish va ularda ekologik bilimlarga oid ko'nikma va malakalarni shakillantirish hozirgi kunda eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ekologik tarbiya berish to'g'risida gapirishdan oldin, ekologiya tushunchasiga to'xtalib o'tsak maqsadga muofiq bo'ladi. „Ekologiya" yunoncha so'z bo'lib tirik mavjudodlarning yashash sharoiti va tevarak atrofdagi muhit bilan o'zaro munosabatlari hamda shu orasda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o'rganadigan fandir.

„Ekologiya atamasi 1866 yilda nemis zoollog olimi E. Gekkel tomonidan fanga kiritilgan.

Yaqin vaqtlargacha bu atama faqat mutaxassislargagina ma'lum edi. Endilikda atrof muhitga, tabiat boyliklariga e'tiborsiz bo'lish butun sayyoraga zarar yetkazish mumkinligi aniq bo'lib qoldi. Inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar muammolarni yechish zaruriyati tug'iladi. Shu borabarida ekologik vazifalarni sog'lomlashtirish asosiy ishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Talabalarda ekologik madaniyatni tarkib toptirish, ularga tabiat, atrof muhit bilan qanday munosabatda bo'lishini o'rgatish pedagogika nazariyasi va maktablari amaliyotining eng dolzarb mavzusiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9-dekabrda qabul qilingan „Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi" qonuni „Sog'lom avlod uchun" ordenining ta'sis etilishi, shu nomda Davlat dasturi, „Ekologik ta'lim-tarbiya kontseptsiyasi"ning ishlab chiqilishi „Ekosan" jamg'armasining tuzilishi mamlakatda ekologik muammolarni bartaraf etishga kirishilganidan dalolatdir.

Ekologik ta'lim-tarbiya umumiy ta'lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo'lib kasb-hunar kolejlarida barcha fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodni atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakillantirishdan iboratdir.

- Atrof muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri.
- Tabiat va uning ahamiyatini anglash.
- Tabiatga muhabbatni rivojlantirishda maktab kollej va oila hamkorligi
- O'z tumanini, shahrini, qishloq va o'quv muassasi xovlisini ko'kalamzorlashtirishda.

hatto, o'quv xonasidagi o'simliklarni ham parvarishlashga qiziqishlarini oshirish;
- Atrof-muxit muhofazasi, bunda bolalarning vazifalari;
- Tabiatni muhofaza qilishda ota-onalarni namunalari
- Oiladagi, kollejdagi tabiatni, o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish
- Tabiatga ongli munosabat jarayonida talabalarning dunyoqarashini kengaytirish.
- Yoshlarning ekologik tarbiyalashda milliy an'ana va udumlarni qayta tiklash ularga e'tiborni kuchaytirish.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng bu dunyoni obod etish, uning atrof muhitni toza saqlash har bir fuqaroning insoniy burchiga aylanadi. Obodonchilik va orastalik, pokizalik va tejamkorlik, xush xulqli va xush muomilali har bir inson uchun, ayniqsa pedagoglar va talabalar uchun ham ekologik ma'naviy mezonidir.

Biz kasb-hunar kollejlarida talabalarga ekologik tarbiya berishda o'qitishning zamonaviy metodlaridan, pedagogik o'yinlardan va pedagogik texnologiyalardan foydalansak maqsadga muofiq bo'ladi.


Ekologik tarbiya.
Atrof muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri
Tabiat va uning ahamiyatini aniqlash.
Tabiatga muhabbatni rivojlantirishda maktab, kollej va oilani hamkorligi
Atrof-muhit muhofazasi bunda bolalarning vazifalari.
Oiladagi kollejdagi tabiatni o'simliklar va hayvonot dunyosidagi e'tiborga o'rgatish jonivor va qushlarni parvarish qilish
Tabiatni muhofaza qilishda ota-onalarni namunalari
O'z tumanini shaxrini, qishloq va o'quv muassasi hovlisini ko'kalamzorlashtirishda, hatto o'quv xonasidagi o'simliklarni ham parvarishlash.
Tabiatga ongli munosabat jarayonida talabalarining dunyoqarashini kengaytirish.
Yoshlarning ekologik tarbiyalashda milliy an'ana va udumlarni qayta tiklash ularga e'tiborni kuchaytirish.

# HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI QISMI

Maxsus fanlarni o'qitish xonalarida mehnat muhofazasi qoidalarini ishlab chiqish

Mehnat muhofazasi xonasi mehnat muhofazasi bo'yicha muhandis - texnik xodimlari ishchi va xizmatchilarning bilimlarini oshirish, ularning xavfsizlik texnikasi qoidalarini hamda hamma talablarni ongli ravishda bajarish ruhida tarbiyalashning o'quv - uslubiy markazi bo'lib xizmat qiladi.

Bu xonaga mehnat muhofazasi bo'yicha muhandis vosita rahbarlik qiladi. Qurilish me'yor va qoidalariga muvofiq xavfsizlik texnikasi xonasining maydoni hodimlarning ro'yhatdagi soniga bog'liq holda tanlanadi. Ular 1000 ta bo'lganda - 24 $м^2$ 1001 dan 3000 tagacha - 48 $м^2$ 3000 dan 5000 gacha bo'lganda - 72 $м^2$ bo'ladi. Xonada o'quv ma'lumotnoma uslubiy va ko'rgazma bo'limlari jihozlanadi. Xonadagi ishlarni yo'lga qo'yish, uning ish rejasini tasdiqlash korxona bosh muhandisiga yuklatiladi.

Xonada kirish yo'riqnomasi o'tkaziladi va hodimlar mehnat muhofazasi bo'yicha o'tkaziladi. O'quv maqsadlarida maketlar, ko'rgazmalar qurollar, plakatlar, yo'riqnomalar, korxona, jamoa va maxsus poyavzal hamda himoya vositalari andozalaridan. ishga yaroqli, yaroqsiz asbob-uskuna

lar namunalari bilan jihozlangan, stendlar, diafilmlar, diapozitiv va kinofilmlardan foydalanadi.

Xodimlar bilan yillik texnikaviy, minimumlarda, muhandislik-texnik xodimlar bilan oylik kengashlar o'tkazishda tematik kinofilmlar ko'rsatish zarur. Bunday mehnat muhofazasi qoidalari ishlovchilar yodida qoladi. Mehnat muhofazasi bo'yicha bilimlarni oshirish maqsadida turli jurnallardan chop etilgan mehnat muhofazasiga oid yangiliklar bilan tanishtirish, mehnatga xavfsizlik masalalari bo'yicha ishchilarga ma'lumot berish uchun sex va bo'limlarda mehnat muhofazasi bo'yicha burchaklar tashkil etilgan. Mehnat muhofazasiga oid amalda bo'lgan barcha yo'riqnomalar osib qo'yiladi. Mehnat muhofazasi bo'yicha jamoatchi inspektorlar ilg'or ish tajribasini qo'llaydilar, o'z korxonalari hamda boshqa korxona va tayyorlash punktlaridagi mehnat muhofazasi borasidagi ratsionalizatorlik takliflarini kiritadilar.

Ma'muriyat va muhandislik-texnik xodimlarining asosiy vazifalari mehrat haqidagi qonunlar hukmi, xavfsizlik yo'llari va ishlab chiqarish sanitariya qoidalari bilan belgilanadi. Ishlab chiqarishda

shikastlanish va kasb kasalliklarini kamaytirish hamda ularni oldini olishga oid mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarni amalga oshirish tadbirlariga umumiy rahbarlik hamda bu ishga javobgarlik ma'muriyat rahbarlari uning o'rinbosari bosh muhandis zimmasiga yuklatiladi.

Ma'muriyat rahbari:

- Ishlab chiqarishda shikastlanish va kasb kasalliklarining oldini oluvchi tashkiliy texnik tadbirlarni rejalashtirishga;
- Ana shu tadbirlar uchun o'z vaqtida mablag' ajratishga va ularni o'tkazishga doir ro'yxatlarni tasdiqlashga hamda mehnat sharoitini mustahkamlash va sog'lomlashtirish uchun ajratilgan mablag'larni to'g'ri sarflanishini nazorat qilib borishga;
- Mehnat muhofazasiga doir jamoa shartnomalari va bitimlarining bajarilishini ta'minlashga;
- Mehnat va dam olish tartibi, ayollar hamda o'smirlar mehnatini muhofaza qilish haqidagi qonunlarga amal qilishga;
- Kasaba uyushmalari texnik nazoratchilari va jamoatchi nazoratchilar hamda mahalliy kasaba uyushmasi qo'mitasi komissiyasining mehnat muhofazasiga

doir buyruqlarni bajarilishiga;
- Detallar va kasblarning ayrim turlari uchun xavfsizlik yo'llari bo'yicha yo'riqnomalarni tasdiqlashiga.
- Ishchi-xizmatchilarni o'z vaqtida amaldagi me'yorlarga muvofiq korxona jamoa, maxsus poyafzal, yakka tartibdagi himoya vositalari va maxsus oziq-ovqatlar bilan ta'minlashiga majbur.

Bosh mexanik:
- hamma sexlar va bo'limlar boshliqlarining xavfsizlik yo'llari hamda ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qonun chiqaruvchi me'yorlar va qoidalarni bajarilishini muntazam ravishda nazorat qilib boradi.
- Amaldagi xavfsizlik yo'llari va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari hamda mavjud ishlab chiqarish sharoitiga muvofiq kasblar ishlab turishi bo'yicha xavfsiz ishlash yo'llari hamda usullariga doir yo'riqnomalarni ishlab chiqarishga qo'llanilishiga rahbarlik qilish;
- xavfsiz ishlash usullarining ommaviy tadbiq qilinishi, xavfsizlik xonalarida ma'ruzalar, suhbatlar o'tkazishi, xavfsizlik yo'llariga oid plakatlar va ogohlantiruvchi yozuvlar tayyorlanishini nazorat qilish.

- Xavfsizlik yo'llari, ishlab chiqarish sanitariyasiga doir amaldagi qoidalarga, kasaba uyushmasi, texnik nazoratchi va jamoatchi nazoratchilarning mehnat muhofazasiga doir buyruqlarga amal qilinishini nazorat etish.

Xavfsizlik yo'llari bo'yicha muhandis bevosita korxonaning rahbariyati va bosh muhandisiga bo'ysunadi. U o'z ishini mahalliy kasaba uyushmasi qo'mitasi, mehnat muhofazasi bo'yicha komissiya, shuningdek, Mehnat va axolini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sanoat texnik nazoratchilari bilan hamkorlikda amalga oshirish.

Kasb-hunar kollejlarida mehnat muhofazasi va hayot faoliyatiga doir ishlar tashkiliy texnik tadbirlarni kompleks rejasi asosida amalga oshiriladi. Bu tadbirlarni ma'muriy mahalliy kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan birgalikda ishlab chiqiladi.

# IShNING SAMARADORLIGI (Iqtisodiyot qismi)

Ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash samaradorligi.

Uzluksiz ta'lim tizimida davlat buyurtmasi va ijtimoiy talabga muvofiq har bir ta'lim muassasi va unda xizmat qiluvchi pedagog - kadrlar zimmasiga ta'lim - tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ilm,- fanning so'ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'naviyatli, kasb - hunarli, el - yurtga sadoqatli milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o'z burchi va javobgarligini his eta oladigan, raqobatbardosh barkamol shaxsni tarbiyalash va kamolga yetkazish, ularni ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish yuklatilgan. Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli hal etish ta'lim tarbiya jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalardan foydalanish bilan uzviy ravishda bog'liq.

Ta'lim - tarbiya jarayonlariga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, eng avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratsiyalashni talab qiladi. Bunday munosabatlarni tashkil etmasdan

turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalash asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo'lib, unda hamkorlik, g'amxo'rlik, bilim oluvchi shaxsni hurmat qilish kabilardan iborat o'quv faoliyati tashkil etadi.

Pedagogning o'quvchi va talabalarning shaxsga bo'lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg'urish, shaxsga bo'lgan yuksak ishonch, o'zaro hamkorlik, mukammal muloqot madaniyati, ixtiyoriylik va erkinlik, rag'batlantirish va kamchiliklarga chidamlilik hisobiga amalga oshadi. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'quv jarayonidagi barcha ishtirokchilarning faolligi va teng xuquqliligi talab etiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini demokratizatsiyalash - bilim beruvchi va bilim oluvchining fuqarolik xuquqlarini tenglashtirish, o'quvchilarda tanlash va o'z fikri hamda nuqtai nazarini erkin bayon etish sharoitlarining yaratilishiga olib keladi. Bu O'zbekiston Respublikasining asosiy Qonuni Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan me'yorlarga hamnuhamohang keladi.

Yangi munosabatlarning o'ziga xos jihati, an'anaviy ta'limdagidan farq qilib, o'qituvchilarning mustaqilligi va ijodiy o'quv faoliyatini ta'qiqlamasdan ularni belgilangan maqsadga yo'naltirish, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish, qiziqtirish, ehtiyojlarini hisobga olish va erkin hamda faol mehnatga undash tufayli amalga oshirilishi bilan xarakterlidir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida vujudga kelgan yangi pedagogik munosabatlar mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Buning uchun pedagogik texnologiyalarni joriy etishning o'ziga xos vositalari zarur bo'ladi. Ular xilma-xildir: verbal (nutq so'zlash, ma'ruza, suhbatlashish, savol-javoblar, bahs-munozara, muzokara, axborot va ma'lumot berish, kengashish, maslahatlashish, nasihat yoki tanbeh berish kabilar) noverbal (imo-ishora, qo'l va gavda harakatlari yordamida ma'lum ma'no-mazmunni ifodalash yoki ta'qidlash) vizual (ko'rgazmalilik elementlari - plakatlar, jadvallar, suratlar, diagrammalar, sxemalar, yozuv va tasvirlar, fotosuratlar, tarqatma materiallar, video lavhalar, jonli va jonsiz ob'ektlar, turli buyumlar va boshqalar) audio (magnit

yozuvlari, lingafon va radio vositalar, musiqa va nutqiy asarlar kabilar) tabiiy (odam, hayvon, o'simlik, mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar, inshootlar kabilar) o'quv anjomlari (kitob, atlas, xarita, reaktivlar va boshqalar) kabi vositalar farq qilinadi va ular yakka yoki omixta tarzda keng miqyosda qo'llaniladi.

Ta'lim jarayonida yangi texnologiyalarni kiritish mexanizmini taniqli pedagoglar T.J. Yo'ldoshev va S.A. Usmonov quyidagicha bayon qilgan.

1. Pedagogik jamoani yangi pedagogik texnologiya asoslari bilan tanishtirish - ma'ruza adabiyotlar tavsiya etish
2. Yangi texnologiya asosida ishlashni xohlovchi pedagoglar jamoasini aniqlash. Ular orqali o'qituvchilarga pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan ko'zda tutilgan maqsadni, uning mohiyatini yetkazish.
3. Yangi pedagogik texnologiyalar asosida ishlamoqchi bo'lgan o'qituvchilarni shu jarayonga tayyorlash yuzasidan quyidagi tashkiliy ishlarni amalga oshirish.
- seminar
- trening
- individual maslahat berish
- ko'rgazmali darslar tashkil etish

4. Yangi texnologiya asosida ishlovchilarning ishini nazorat qilish, kuzatuv va tahlilar o'tkazish, metodik yordamlar ko'rsatish. Ularning hisobotlarini eshitib borish.

5. Yangi pedagogik texnologiya asosida ishlovchi o'qituvchilarning metodika kengashida pedagogika kengashlarida chiqishlarini tashkil qilish.

6. Yangi pedagogik texnologiya bo'yicha ishlash uchun zarur didaktik materiallar, vositalar xonasini tashkil qilish

7. Yangi texnologiyalar bo'yicha ishlashning afzalliklarini, o'qituvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa tomonidan qo'llab quvvatlanishini oshkor etib borish.

8. Ilg'or, innovator pedagoglardan innovator pedagogik jamoani shakillantirish.

9. Yangilanishning uzluksizligi, davomiyligini ta'minlash.

Har bir ta'lim muassasasi o'z pedagogik jamoaning umumpedagogik tayyorligi, istak va xohishlariga muofiq pedagogik texnologiyani joriy etish strategiyasi va taktikasini o'ziga moslab rejalashtirish mumkin.

Pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun o'qituvchilar bilan quyidagi tashkiliy tadbirlar o'tkaziladi.

- Yakka tartibda (individual) ishlash (ta'lim muassasasida, kutubxonada, uyda, ma'rifiy tadbirlarda).
- Juft bo'lib ishlash (o'quv yurtida).
- Kichik guruhlarda ishlash (ta'lim-tarbiya muassasalarida, hududiy tashkilotlarda).
- Katta guruhlarda ishlash (mintaqaviy ko'lamda)

Tajriba almashish, innovatsion faoliyatni ommalashtirish, anjumanlarda qatnashish, interfaol mashg'ulotlar tashkil etish va shular kabilar ko'pgina tadbirlar ham amalda tez-tez qo'llaniladi.

Bularda quyidagi tartib-qoida va yo'riqlarga rioya qilish lozim.

- Vaqt rejimiga bo'ysunish;
- Vaqtdan unumli foydalanish;
- O'zgalar fikri bilan hisoblashish
- Keng fe'llilik va tanqid qilmaslik, tanbeh bermaslik;
- Mulohazalilik;
- Fikrini lo'nda bayon etish va boshqalarni fikriga diqqat bildirish;
- Erkin munozara vaziyatiga bo'ysunish;
- O'zaro munosabatda samimiylik hamda xolislik va boshqalar.

Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda ayrim pedagogik va psixologik tajribalarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

# XULOSA

# Xulosa

Mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ijobiy samara bermoqda. O'quv faoliyatini tashkil etishda talabalarni o'zaro yordam va o'zaro hamkorligi alohida o'rin tutadi. Bu ayniqsa o'zlashtirishi bo'sh talabalar uchun katta ahamiyatga ega. O'qitishning bu tizimi bo'yicha o'tkazilgan tekshirishlarning ko'rsatishicha, undagi o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam, o'zaro havsoratga asoslangan mehnat ayniqsa, o'zlashtirishi past bo'lgan talabalar uchun nihoyatda foydali bo'lib, ularga o'quv materiallarini o'zlarining fanini o'rganishlariga mos holda o'zlashtirilishi imkoniyatini yaratib beradi.

Talabalarning o'quv jarayonining borishiga nisbatan o'z munosabatlarini tezkorlik bilan bildirishlarini ta'minlaydi. O'qituvchi o'quv jarayonini bir necha (10 tagacha) muhim qismlarini ro'yxatini tuzadi. Masalan o'quv maqsadlari, o'quv materiallari, topshiriqlar, texnik vositalar, talabalar qobiliyatlari va hatti-harakatlari, talabalarni guruhlarga ajratish, turli xil interfaol usullar (klaster, sinkveyn, insert, miya hujumi, kubik usuli, zig-zag usuli, mikroguruhlardan ishlash) dan foydalanish, o'qituvchi va talabalarning o'zaro muloqati, o'qituvchi hatti-harakati,

O'qituvchi mashg'ulotlarni innovatsion texnologiya bo'yicha bajarar ekan, u quyidagilarga amal qilish zarur.

- Mashg'ulotlarning tashkiliy (boshlang'ich qismida) talabalarda ushbu mavzuni o'rganishga ichki ehtiyoj (ishtiyoq) uyg'otadi.
- Har bir mashg'ulot o'quv maqsadlari (kutilayotgan natijalarni) talabalarga e'lon qiladi va zarur bo'lsa, ular ishtirokida muhokama qilib, o'zlashtirishlar kiritiladi.
- Mashg'ulotlarda 15-20 daqiqali ma'ruzani talabalarni mustaqil o'qishi, ko'rgazmalarni namoyon qilish, asosiy qoidalarni yozma rasmiylashtirish va hokazo o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari bilan almashtirib turadi.
- Ma'ruza va amaliy mashg'ulotida o'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlarni rivojlantirish hamda „insert", „sinkveyn", „klasterli tahlil" kabi usullardan oqilona foydalinadi.
- Mashg'ulotlarda o'qitishning interaktiv uslublari, jumladan, mashg'ulotlarning bir qismini kichik guruhlarda o'tkazish va muhokama qilish „miya hujumi", „talabalar bir-birini o'rgatadilar" va talabalar bilish faoliyatini faollashtiruvchi boshqa uslublaridan samarali foydalanadi.

Shuningdek, pedagogik texnologiya bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi har bir mashg'ulot uchun texnologik karta tuzishi zarur. Texnologik karta - mashg'ulot davomida o'qituvchi va talabalarning hamkorligidagi ketma - ketligi hamda qo'llaniladigan vositalarning namoyish qilish sxemasi bo'lib hisoblanadi. Har bir mashg'ulot texnologik kartasining namunaviy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: mavzu va unga ajratilgan soat o'qituvchi maqsadlari va talabalar vazifalari (kutilayotgan natijalar) talabalarning har bir vazifasiga oid test yoki boshqa shakldagi nazorat topshiriqlari; mavzuning mazmuni (eng muhim savollar) tayanch so'z va iboralar, o'qituvchining talaba o'quv faoliyatini boshqarishning asosiy omillari. Bunda boshqarishning uslubi va shakli, o'qitishni grafik va texnik vositalari, usullari ko'rsatiladi.

Pedagogik texnologiyaning tub mohiyati, o'qitishning an'anaviy og'zaki bayon qilish usulidan voz kechish o'quvchilarni ko'proq mustaqil ta'lim olishga undashdan iborat. Bunda o'qituvchi o'quvchilar bilish faoliyatini boshqaruvchi, maslahatchi, yakuniy natijalarga yo'llovchi vazifasini bajaradi.

Pedagogik texnologiyaning samaradorligi shundan iboratki, unda turli o'qituvchilar deyarli bir xil natijaga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quv maqsadlarining aniq tartibli turkumini yaratish eng avvalo amaliyotchi pedagoglar uchun juda muhim. Buning sababi:

1 O'quv jarayonida e'tiborni asosiy maqsadga qaratish. O'qituvchi taksonomiyadan foydalangan holda nafaqat o'quv maqsadlarini, balki asosiy vazifalarini, bundan keyingi faoliyatning tartibi va borishini ham belgilash mumkin.

2. O'qituvchi va o'quvchilar hamkorligidagi faoliyatning aniqligi va oshkoraligi

3 O'qitish natijalarini baholash andozasini yaratish. Uni o'qituvchilar bilan hamkorlikda yaratish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion yutuqlardan foydalanuvchi o'qituvchi, o'zi ko'nikib kelgan odatdagi ish usullaridan voz kechishi, shu bilan birga, pedagogik texnologiya imkoniyatlarini chuqur o'zlashtirib, undan o'quv jarayonida samarali foydalanish yo'llarini topish bo'yicha ijobiy izlanishlar olib borish zarur.

# FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.


1. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq Sh. M. Mirziyoyev Toshkent „O'zbekiston" 2016

2. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan. Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza 2017 yil 14 - yanvar Toshkent „O'zbekiston" 2017 - 104 b

3. Ilm - fan yutuqlari taraqqiyotni muhim omili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yangi yil arafasida 2016 yil 30 - dekabr kuni mamlakatimizni yetakchi ilm - fan namoyondalari bilan uchrashdi - Xalq so'zi 2016 31 dekabr B 1. 2017.

4. Farzandlari sog'lom yurtning kelajagi buyukdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 5 yanvar kuni sog'liqni saqlash sohasining bir guruh yetakchi mutaxassislari bilan uchrashdi.

Xalq so'zi 2017 6-yanvar B-1

⑤ Hodiev B. Bekmuradov. A. Golish. L. Xamidov D. Hayzni ishlab chiqish texnologiyasi toshkent 2010

⑥ Xodiev. B. Bekmuradov. A. Golish. L. Mustafoqulov Sh. Hoshimov D. Ta'limning key-texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish toshkent 2010 yil

⑦ Bekmuradov A. Golish. L. Toshimov B. Xodjaeva K. Sayitkoviy ta'limning texnologiyasi toshkent

⑧ Xodiev B. Golish L. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usullari va vositalari T 2010 yil 87b

⑨ Xodiev B.Yu Oliy iqtisodiy ta'lim tizimi uchun zamonaviy o'quv adabiyotlari yaratish yangi standart talablari, tuzilishi namunasi Toshkent 2005 yil 167 b

⑩ Fayzullaev D. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish toshkent 2010

⑪ Oliy ta'lim Me'yoriy hujjatlar to'plami S.S. Gulomov tahriri ostida tuzuvchilar. B.X. Rahimov, Sh. DJonboev Toshkent Sharq 2001

